

O‘ZBEKISTON SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI

MAXMATMURADOVA N.N.

**IMMUNOLOGIK BIOMARKERLAR ASOSIDA NOSPETSIFIK
INTERSTITSIAL PNEVMONIYA DIAGNOSTIKASI**

SAMARQAND – 2024

**«KELISHILDI»
SAMARQAND DAVLAT
TIBBIYOT UNIVERSITETI**

**Ekspert kengash raisi
t.f.n., professor**

_____ **L.R. Agagabyan**
«____» _____ **2024 y.**

**«TASDIQLAYMAN»
SAMARQAND DAVLAT
TIBBIYOT UNIVERSITETI**

**Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha
prorektor, t.f.d., professor**

_____ **A.S.Kubaev**
«____» _____ **2024 y.**

**IMMUNOLOGIK BIOMARKERLAR ASOSIDA NOSPETSIFIK
INTERSTITSIAL PNEVMONIYA DIAGNOSTIKASI**

MONOGRAFIYA

SAMARQAND – 2024

UO’K:

BBK:

Maxmatmuradova N.N. Immunologik biomarkerlari asosida nospetsifik interstitsial pnevmoniya diagnostikasi. Monografiya. – Samarqand: “_____” nashriyoti, 2024. – 130 bet.

Tuzuvchi:

N.N.Mahmatmuradova - Samarqand davlat tibbiyot institutining 4-son ichki kasalliklar kafedrasida assistenti, PhD

Taqrizchilar:

Ziyadullaev Sh.X. – professor, tibbiyot fanlari doktori, O’zR FA Immunologiya va inson genomikasi instituti.

Tashkenbaeva E.N. – professor, tibbiyot fanlari doktori, Samarqand Davlat tibbiyot universiteti 2-son ichki kasalliklar va kardiologiya kafedrasida mudiri.

Annotatsiya. Mamlakatimizda tibbiyot sohasini rivojlantirish tibbiy tizimni jahon andozalari talablariga moslashtirish, jumladan, turli patologik holatlarda to’g’ri maqsadga yo’naltirilgan chora-tadbirlarni o’tkazishga karatilgan muayan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu borada 2022-2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasining etitita ustuvor yo’nalishiga muvofiq aholiga tibbiy xizmat ko’rsatish darajasini yangi bosqichga ko’tarishda «...birlamchi tibbiy-sanitariya xizmatida aholiga malakali xizmat ko’rsatish sifatini yaxshilash....» kabi vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, ushbu monografiya nospetsifik interstitsial pnevmoniya bilan hastalangan bemorlarda patologiyani erta aniqlash diagnostikasi, ularni hayot sifatini oshirishga, yuqoridagilarni inobatga olib asoratlar rivojlanishini oldini olish, samarali davo usullarini ishlab chiqishga, shuningdek tadqiqot natijalardan amaliy tibbiyotda, terapiya, ichki kasalliklar propedevtikasi, pulmonologiya fanlari bo’yicha ma’ruza va amaliy mashg’ulotlarda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Mazkur monografiya SamDTU Ilmiy Kengashining 2024 yil 24.04 dagi 9-sonli bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN

MUNDARIJA

SHARTLI BELGILAR.....	4
SO'Z BOSHI.....	6
NOSPETSIFIK INTERSTITSIAL PNEVMONIYA HAQIDA ZAMONAVIY QARASHLAR	14
Nospetsifik interstitsial pnevmoniya (klinik-epidemiologik tavsifi)	14
Nospetsifik interstitsial pnevmoniya rivojlanishida yallig'lanish tizimi markerlarining o'rni	18
Nospetsifik interstitsial pnevmoniyaning diagnostik mezonlari.....	24
NOSPETSIFIK INTERSTITSIAL PNEVMONIYA DIAGNOSTIKASINING KLINIK VA LABORATOR TA'MOYILLARI METODOLOGIYASI VA MONITORINGINING KLINIK TAVSIFI VA TADQIQOT USULLARI ...	31
Umumklinik tekshiruv uslublari	31
Instrumental tekshiruv usullari.....	33
Immunologik tadqiqotlar.....	40
Statistik ishlov berish usullari	42
NOSPETSIFIK INTERSTITSIAL PNEVMONIYA BILAN KASALLANGAN BEMORLARNING KLINIK TAVSIFI	43
Nospetsifik interstitsial pnevmoniyaning klinik va laborator ta'moyillari.....	43
Nospetsifik interstitsial pnevmoniyaning nurlil diagnostika va spirometriyasi natijalari.....	62
NOSPETSIFIK INTERSTITSIAL PNEVMONIYA RIVOJLANISHIDA BIOMARKERLARNING URNI	78
Nospetsifik interstitsial pnevmoniyada proteoliz fermentlari.....	78
Nospetsifik interstitsial pnevmoniyada yallig'lanish biomarkerlari.....	82
NOSPETSIFIK INTERSTITSIAL PNEVMONIYANING ERTA TASHXISLASHNI MATEMATIK MODELINI YARATISH	89
Nospetsifik interstitsial pnevmoniyaning erta tashxislash modelini tuzish.....	89
Klinik misollarda matematik modelni tekshirish.....	93
XOTIMA	96
XULOSALAR.....	109
ADABIYOTLAR.....	111

SHARTLI BELGILAR

BA	- bronxial astma
BAL	- bronxoalveolyar lavaj
BP	- bakterial pnevmoniya
BTTK	- biriktiruvchi to‘qimalarning tizimli kasalliklari
DIP	- desquamativ interstitsial pnevmoniya
DP	- dorili pnevmoniti
DQB	- diastolik qon bosimi
DT	- dalillarga asoslangan tibbiyot
EAA	- ekzogen allergik alveolit
EChT	- eritrotsitlarning cho‘kish tezligi
GERK	- gastroezofagial reflyuks kasalligi
GK	- gipertonik kasalligi
GKS	- glyukokortikosteroidlar
IFA	- idiopatik fibrozli alveolit
IFT	- immunoferment tahlili
IGKS	- ingalyatsion glyukokortikosteroidlar
IIP	- idiopatik interstitsial pnevmoniya
IL	- interleykin
IO‘F	- idiopatik o‘pka fibrozi
IO‘K	- interstitsial o‘pka kasalligi
JNChH1	- 1 soniyada jadallashgan nafas chiqarish hajmi
JO‘TS	- jadallashgan o‘pkaning tiriklik sig‘imi
JSST	- Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti
KT	- kompyuter tomografiyasi
KQAR	- ko‘krak qafasi a‘zolarining rentgenografiyasi
KQA	- ko‘krak qafasi a‘zolari
LHT50, LHT75	- o‘pkaning majburiy tiriklik sig‘imining 50 va 75% chiqarilganidan keyin bir lahzali hajmli oqim tezligi
MTO‘S	- majburiy tiriklik o‘pka sig‘imi
MI	- miyokard infarkti
NE	- neytrofil elastaza
NF	- neytrofillar
NIP EK, O‘K, OK	- nospetsifik interstitsial pnevmoniya, engil, o‘rtacha og‘ir, og‘ir kechishi
NOE	- nafas olish etishmovchiligi
ODIP	- oddiy interstitsial pnevmoniya
OYaK	- oshqozon yara kasalligi
O‘HT	- o‘rtacha hajmli tezlik
O‘IP	- o‘tkir interstitsial pnevmoniya
O‘NE	- o‘tkir nafas etishmovchiligi
O‘SV	- o‘pkaning sun'iy ventilyatsiyasi
O‘TK	- o‘t-tosh kasalligi
O‘TS	- o‘pkaning tiriklik sig‘imi
O‘Yu	- o‘pkali yurak

PNY	- pastki nafas yo‘llari
QB	- qalqonsimon bez
SIK	- sirkulyatsiyalovchi immun komplekslar
SOO‘K	- surunkali obstruktiv o‘pka kasalligi
SQB	- sistolik qon bosimi
SQY	- tizimli qizil yuguruk
SSV	- Sog‘liqni saqlash vazirligi
TMSH	- tuman markaziy shifoxonasi
TNOF	- tashqi nafas olish funktsiyasi
TS	- tizimli sklerodermiya
YuAKT	- yuqori aniqlikdagi kompyuter tomografiyasi
YuE	- yurak etishmovchiligi
YuHT	- eng yuqori hajmli tezlik
YuIK	- yurak ishemik kasalligi

SO'Z BOSHI

Hozirgi vaqtda dunyoning barcha mamlakatlarida, shu jumladan O'zbekistonda interstitsial o'pka kasalliklarining keng tarqalishi, ular oqibatida nogironlik va o'lim ko'rsatkichlarini yuqori bo'lishi bemorlarga ixtisoslashtirilgan pulmonologik yordam ko'rsatishning klinik va tashkiliy shakllarini takomillashtirish zarurligini belgilaydi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, «... dunyoda kasallanish yiliga 100 000 axoliga 70,1 tashkil qilmokda, tarkalishi esa 100 000 axoliga 6,27 dan 97,9 gacha kuzatilib, ulardan 1 mln dan ortig'ini o'limga sabab bo'lmoqda...». Ayni paytda interstitsial o'pka kasalliklari mavjud bo'lgan bemorlarda differentsial diagnostikaning murakkabligi sababli ushbu kasalliklarga chalingan bemorlarni davolashning davomiyligi va og'irligi, ularni o'z vaqtida aniqlash va diagnostika-davolash jarayonini to'liq amalga oshirish maqsadida diagnostika va davolashning eng maqbul usulini tanlash, ularni qo'llashning optimal vaqtini belgilash hamda davolashning natijalarini baholash pulmonologiya amaliyotida echimi topilishi zarur bo'lgan muammo hisoblanadi.

Jahonda interstitsial pnevmoniyaning shakllanishi jarayonida immunitet va endokrin tizimlarning roli, immunopatogenetik mexanizmlarni o'rni, erta tashxislash, optimal davolash va profilaktika usullarini ishlab chiqarishga qaratilgan qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmokda. Bu borada qo'llanilayotgan diagnostika usullari fonida yallig'lanish biomarkerlari holatini, nospetsifik interstitsial pnevmoniyaning shakllanishida katta ahamiyatga ega bo'lgan neytrofil elastaza fermenti miqdorini baxolash orqali diagnostika va prognozlash uchun ko'rsatmalar va qo'llash shartlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda hozirgi kunda aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning sifati va samaradorligi hamda ommabopligini tubdan oshirishni ta'minlaydigan sog'liqni saqlash tizimini tashkil etish, jumladan interstitsial o'pka kasalliklari erta tashxislash va asoratlarini kamaytirishga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlar shirilib, muayyan ijobiy natijalarga erishilmoqda. Bu borada «...axolining sifatl

tibbiy xizmatdan foydalanishlarini kengaytirish, ularga ixtisoslashtirilgan va yuqori texnologiyalarga asoslangan tibbiy yordam ko'rsatish, bolalar va kattalar o'limini kamaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni yanada kengroq amalga oshirish» kabi vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, nospetsifik interstitsial pnevmoniya rivojlanishining turli darajadagi klinik ko'rinishlarini o'rganish, to'qima gipoksiyasi sharoitida proteoliz fermentlaridan neytrofil elastazaning miqdorini o'zgarishining prognostik ahamiyatini belgilash, yallig'lanish tizimining biomarkerlaridan IL-1 β va IL-17Ani aniqlash xada nospetsifik interstitsial pnevmoniya kechishining og'irligini erta baholash uchun matematik modelini yaratish orqali kasallik natijasida yuzaga keladigan asoratlar va o'lim ko'rsatkichini kamaytirish imkonini beradi.

Bugungi kunda sohada orttirilgan tajriba va olib borilgan ilmiy va amaliy tadqiqotlarni e'tiborga olib, klinik-laborator, instrumental, yallig'lanish biomarkerlari, qon zardobidagi neytrofil elastaza miqdorini o'rganish asosida har xil kechishdagi nospetsifik interstitsial pnevmoniya erta tashxislashni oshirish hamda ushbu bemorlarda xayot sifatini yaxshilashga yordam beradi. Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqib, nospetsifik interstitsial pnevmoniya turli kechishlari mavjud bo'lgan bemorlarda immunologik biomarkerlardan foydalanish natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan asoratlarni oldini olishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish imkonini beradi.

NOSPETSIFIK INTERSTITSIAL PNEVMONIYA HAQIDA ZAMONAVIY QARASHLAR

Nospetsifik interstitsial pnevmoniya (klinik-epidemiologik tavsifi)

Hozirgi vaqtda dunyoning barcha mamlakatlarida, jumladan, O'zbekiston Respublikasida ham interstitsial o'pka kasalliklarining tarqalishi, nogironlik va o'lim darajasi yuqori bo'lib, bu patologiya bilan og'rigan bemorlarga ixtisoslashtirilgan pulmonologik yordam ko'rsatishning klinik va tashkiliy shakllarini takomillashtirish zarurligini belgilaydi (Averyanov A.V. va b., 2016; Mustafakulova N.I. va b., 2016).

Interstitsial o'pka kasalliklari – bu geterogen kasalliklar guruhi bo'lib, interalveolyar devorlarning qalinlashishi, fibroblastlarning ko'payishi, kollagenning cho'kishi va o'pka fibrozining rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Ular tasniflashda turli mezonlardan foydalaniladi (o'tkir va surunkali, granulematoz va nogranulematoz, etiologiyasi aniqlangan va aniqlanmagan, o'pkaning birlamchi kasalliklari va tizimli kasalliklar fonida ikkilamchi zararlanishlar) (Bogatova E.I. va b., 2018; Cott C. et al., 2016; Sadr V. Et al., 2017).

Ular asosan biriktiruvchi to'qima kasalliklari, o'pkaning kasbiy kasalliklari, ba'zan turli xil dori-darmonlarni qabul qilish natijasida paydo bo'ladi. Noma'lum etiologiya bilan xarakterli gistologik tasvir aniqlangan. Ular quyidagi turlarga bo'linadi: o'pkaning eozinofil kasalligi, o'pkali langergans hujayrali gistiositozi (granulotsitoz), limfangioleiomyomatoz, o'pkali alveolyar proteinoz, sarkoidoz (Chiba N. et al., 2015; Komatsu R. Et al., 2018).

Biroq, interstitsial o'pka kasalliklari bilan og'rigan bemorlarning uchdan birida, sababi noma'lum bo'lib qolmoqda. Ular gistologik xarakteristikalar bilan farqlanadi va idiopatik interstitsial pnevmoniyalar guruhiga birlashtirilgan. Ular asosan alveolit va progressiv pnevmoskleroz rivojlanishi bilan tavsiflanadi (Ibadov R.A. va b., 2018; Yudin A.A. va b., 2016; Ayala P. et al., 2018).

O'pkaning diffuz interstitsial kasalliklari asosan o'pkaning keng tarqalgan o'choqli yoki interstitsial o'zgarishlar va progressiv hansirash bilan tavsiflanadi

(Karetnikova V.M. va b., 2019; Antonelli A. et al., 2017). Bu patologiya asosan o'pka silida, yoki ikkilamchi asorati (qalqonsimon bez saratoni metastazlari, biriktiruvchi to'qima diffuz kasalliklarida va boshqalar) bo'lishi mumkin (Ilkovich I.I. va b., 2018; Fukui M. et al., 2017).

Ularning barchasi bir xil rentgen tasviriga ega bo'lishi mumkin (Kazimova D.V., 2015).

Hozirgi payti avvalgi «o'pkada interstitsial jarayonlar» tushunchasi bu kasalliklarda ko'pincha morfologik o'zgarishlarni aks ettirmaydi.

Ingliz tilidagi adabiyotlarda «diffuz infiltrativ o'pka kasalliklari» diffuse infiltrative lung disease, (DILD) nomi ishlatiladi (W.D. Travis, 2013).

Bu kasalliklar kechishi bo'yicha o'tkir va surunkaliga bo'linadi. O'pka to'qimasida o'zgarishlarning tarqalishi ko'pincha notekisligi uchun, «diffuz» tushunchasi ko'pincha shartlidir. Lekin, patologik jarayon o'pkaning faqat bo'lak yoki segmentlar bilan chegaralanmaydi (Srivastava D. et al., 2018; Zhang C. et al., 2018).

Diffuz interstitsial o'pka kasalliklarining aksariyatini morfologik ko'rinishi asosan o'pka interstitsiyning zararlanishidir. Stroma zararlanishi asosan rentgen tekshiruvda aniqlanadi, ammo surunkali faol gepatit, o'pkaning nurli zararlanishi, qon aylanishining etishmovchiligida ham kuzatilishi mumkin.

Eng keng tarqalgan tasnifda (I.E. Tyurin, 2003; V.V. Ivanov, 2015) quyidagi kasalliklar farqlanadi:

- 1.Fibrozlovchi alveolitlar;
- 2.Granulomatozlar;
- 3.O'sma tabiatli disseminatsiyalar;
- 4.Kollagenozlardagi vaskulitlar;
- 5.Kollektor kasalliklari.

Ingliz tilidagi adabiyotlarda interstitsial (parenximal) o'pka kasalliklarining boshqacha tasnifi tavsiya etiladi (Thoracic Radiology Mosby/Elsevier 2010; Theresa McLoud & Phillip M. Boiselle; Chapter 7 Interstitial lung disease p. 181).

A. Infektsiyalar (miliar sil kasalligi; pnevmoniyalar).

B. Birlashtiruvchi to'qima kasalliklari va immunitet tizimining buzilishlari.

C. Pnevmoniozlar.

D. Idiopatik, interstitsial pnevmoniya.

Tasniflanmagan IIP. E. Sarkoidoz. F. Boshqa maxsus kasalliklar.

G. Neoplaziyalar.

H. Yurak-qon tomir patologiyasi (gemosideroz va boshq.).

I. Qon tomir kasalliklari: (yog'li emboliya, arteriolit va boshq.).

Ta'qidlash lozimki, eng katta diagnostik qiyinchiliklar disseminatsiya mavjudligi bilan namoyon bo'ladigan kasalliklardir (Raymond B.B. et al., 2015).

Ushbu kasalliklarning farqlashda bir qator klinik, rentgenologik, laborator, immunologik va boshqalar mezonlarga asoslanish lozim (Yumartova O.T., 2014).

Keng tarqalgan interstitsial o'pka kasalliklarini tashxislash bo'yicha optimallashtirish choralari taklif qilingan (Frolova T.I., 2013). Bu patologiya diagnostikasida klinitsist, morfolog va rentgenolog ishtiroki lozimligi isbotlangan (Petrov D.V. va b., 2014; Laenger F.P. et al., 2022).

Idiopatik interstitsial pnevmoniya bilan og'rikan bemorlarda o'pka-yurak gemodinamikasi va diafragma kinetikasining xususiyatlari aniqlangan (Sheveleva E.V., 2017).

Ammo, so'nggi yillardagi Evropa respirator jamiyati va Amerika torakal jamiyati mutaxassislari guruhlari tomonidan ishlab chiqilgan mezonlarga qaramay, patologiya diagnostikasi va davolashdagi mavjud qarama-qarshiliklarni uchramoqda.

Shuni ta'kidlash kerakki, differentsial diagnostikaning murakkabligi, ushbu kasalliklarga chalingan bemorlarni davolashning davomiyligi va og'irligi, ularni o'z vaqtida aniqlash va yuqori sifatli diagnostika va davolash jarayonini to'liq amalga oshirishga imkon bermaydi (Ovcharenko S.I. va b., 2019). Ilmiy adabiyotlarga ko'ra, o'pka fibrozining shakllanishi jarayonida, immun, endokrin tizimlarning nomutanosibligidir - bu alohida olimlar tomonidan tasdiqlangan (Martin K.R. et al., 2017).

Statistik ma'lumotlariga ko'ra, Rossiya Federatsiyasida o'limning eng keng tarqalgan sabablaridan biri – pnevmoniyadir, undan har yili 40 mingga yaqin odam vafot etmoqda (Novikov Yu.K., 2011).

Biroq, so'nggi adabiyot ma'lumotlarida o'pka to'qimalarida diffuz jarayonlarning kuchayishi bilan, fibroz rivojlanishida alveolit xavfini ishonchli tasdiqlaydi, shu bilan birga kollagen va so'riladigan fermentlarning nomutanosibligi muhim ahamiyatga ega (Sherbak V.V. va b., 2010).

Nospetsifik interstitsial pnevmoniyaga asosan 40-50 yoshdagi ayollar chalinadi. Shu bilan birga, shunga o'xshash zararlanishlar biriktiruvchi to'qima kasalliklarida (xususan, tizimli sklerodermiya yoki polimiyozit/dermatomiyozit), dorilarni qo'llash bilan bog'liq o'pka kasalliklarining ayrim shakllari va yuqori sezuvchanlik pnevmonitlarida aniqlangan (Shostak N.N. va b., 2017; Ceelen J.J.M., et al., 2017).

Yo'tal va hansirash ko'rinishidagi klinik tasvir uzoq vaqt davomida (bir necha oydan bir necha yilgacha) kuzatiladi. Tizimli alomatlar xos emas, ammo past darajadagi isitma va holsizlik kuzatilishi mumkin. Odatda patologiya tushunarsiz o'tkirosti yoki surunkali yo'tal va hansirash bilan og'rigan bemorlarda aniqlanadi. Tashxislash tomografiya va o'pka biopsiyasi bilan tasdiqlashni talab qiladi. Ushbu patologiya istisno qilish yo'li bilan qo'yiladigan tashxis bo'lib, mumkin bo'lgan muqobil kasalliklar, ayniqsa biriktiruvchi to'qima kasalliklari, yuqori sezuvchanlik pnevmoniti va dorivor moddalar bilan zaharlanish uchun ehtiyotkorlik bilan klinik tahlilni talab qiladi (Yudin A.A. va b., 2015).

Ko'krak qafasining rentgenologik tekshiruvda asosan pastki zonada retikulyar xiraliklar aniqlanadi va ikki tomonlama o'choqli xiraliklar ham bo'lishi mumkin. Kompyuter tomografiyasi natijalariga ko'ra, o'pkaning asosan pastki zonasida taqsimlanishi bilan ikki tomonlama o'choqli susayish, traktsiyon bronxoektazlar mavjud. Tuzilishning «ari uyali» deb ataladigan o'pka kamdan-kam hollarda kuzatiladi.

Shifoxonadan tashqari pnevmoniyani 3 guruhga bo'linishi mumkin:

1) shifoxonaga yotqizishni talab qilmaydigan pnevmoniyalar. 2) bemorlarni shifoxonaga yotqizishni talab qiladigan pnevmoniyalar. 3) bemorlarni shifoxonaga intensiv terapiya bo'limlarida (ITB) yotqizishni talab qiladigan pnevmoniyalar. (Metlay Joshua P. et al., 2019).

Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu patologiya asosiy patogenetik mexanizmi yallig'lanish bo'lib, bu kabi bemorlarda etiologiya va patogenez heterogenligi bo'yicha farqlanadi. U endoteliotsitlar, plazmali va hujayrali qon omillari (neytrofillar, gemostaz va komplement tizimlari), perivaskulyar biriktiruvchi to'qimalarning stroma hujayralari zararlanganda va yallig'langanda rivojlanadi (El Rayes T. Et al., 2015). Neytrofillarga alohida urin egallaydi, ular butun organizmning gomeostazini ta'minlaydi va saqlaydi va infeksiyaga qarshi himoyada muhim rol o'ynaydi (Boxio R. et al., 2016; De Brouwer B. et al., 2018). Shu bilan birga, surunkali yallig'lanish jarayonining asosiy sabablaridan biri ularning disfunktsiyasi bo'lishi mumkin. Shunday qilib, neytrofillar faol kislorod metabolitlarini, proteolitik fermentlarni va boshqalarni atrof-muhitga chiqaradi, yallig'lanish o'chog'ini tiklash uchun samarali vositaga aylanadi, shuningdek, o'z to'qimalarining destruksiyasiga olib keladi (Nathan N. Et al., 2019; Shin J. et al., 2014).

Shunday qilib, pnevmoniya traxeobronxial daraxtni himoya mexanizmlarining buzilishi natijasidir, hamda organizmning qarshiligining pasayishidir (Cherkes F.K. va b., 2018).

Binobarin, mualliflarning ushbu yo'nalishda olib borilgan natijalari shuni ko'rsatadiki, tadqiqotlar asosan ko'p qirrali bo'lib, o'rganilayotgan muammoning mohiyatini to'liq aks ettirmaydi. Xususan, zamonaviy diagnostika uslublari keng qo'llanilmayapti. Bu barcha holatlarda o'pkadagi interstitsial kasalliklarning ajratishni yaxshilash, sifatini ko'tarishda yangi usullarini doimiy ravishda izlashdan dalolat beradi. Oxirgi payti o'pka interstitsial jarayonlarini aniqlashda YuAKT qo'llanilishi, katta imkoniyatlar ochib berdi, lekin ularning natijalarini interpretatsiyasida qator muammolar ochiq qolmoqda.

Nospetsifik interstitsial pnevmoniya rivojlanishida yallig'lanish tizimi markerlarining o'rni

So'nggi yillarda yallig'lanish markerlari, ayniqsa sitokinlar faol o'rganilmoqda. Ular organizmdagi deyarli barcha yadroli hujayralar tomonidan ishlab chiqariladi (tartibga soluvchi peptidlar). Hozirgi vaqtda 200 ga yaqin individual polipeptid moddalar farqlanadi. Ularning barchasi bir qator umumiy xususiyatlarga ega - biologik ta'sirning pleiotropiyasi va o'zaro almashinishi, antigen o'ziga xosligi yo'qligi, o'ziga xos hujayra retseptorlari bilan o'zaro ta'sir qilish orqali signal uzatilishi, sitokin tarmog'ining shakllanishi (Dey A.A. va b., 2021; Dhar J. et al., 2016; Jarczak D. Et al., 2021).

Yallig'lanishga xos sitokinnlarning tufayli tizimli yallig'lanish reaksiyasi rivojlanadi. Xususan, yallig'lanishga xos sitokinlar - IL-1, TNF-a, IL-6, IL-8 hemokinnlari ishtirokida, tipik yallig'lanish reaksiyasi hosil bo'ladi (Chuchalin A.G., 2015; Eddy J.L. et al., 2016; Vijayan A.L. et al., 2017).

To'qimalarning zararlanishiga va qondagi sitokinlar darajasining oshishiga javoba, yallig'lanishning boshqa markerlarining ko'payishi kuzatiladi. Yallig'lanish o'chog'ida makrofag hujayralari patogenlar tomonidan faollashtirilgan yallig'lanishga qarshi polipeptidlarni ajtaratadi (Diorio C., et al., 2020; Raymond W.W. et al., 2015).

Inson tanasini atrof-muhit omillaridan ajratib turadigan hududdagi eng katta qobiq (nafas chiqarishda 80 m² va nafas olishda 120 m²) inson o'pkasi hisoblanadi. Shuning uchun yuqumli antigenlarni o'pkaga kirishiga to'sqinlik qiluvchi tizimlari mavjud (Chigishev A.P., 2015).

Ularning tarkibiga mukotsiliar klirens, nospetsifik himoya moddalari, immunoglobulinlar, fagotsitoz kiradi. Hamda shartli patogen mikroorganizmlar ta'siriga to'sqinlik qiladi.

Mukosiliar klirens bakteriostatik va to'siq funktsiyalarini bajaradi. Shilimshiqning bakteritsid xususiyatlarining o'zgarishi silindrsimon epiteliyning buzilishi va zararlanishi bilan bog'liqdir (Sabitova R.Ya., 2012).

O'pkaning nafas olish qismida nospetsifik himoyaning hujayra mexanizmlari muhim urinish tutadi, ya'ni leykotsitlar, labrositlar, eozinofillar va makrofaglardir. Pnevmoniya rivojlanishida ular hemokinlar (IL-8, TNF-a, IL-1, MCP-1), komplement tizimining tarkibiy qismlari, G-CSF ning ishlab chiqarishadi, ya'ni bu massiv bakterial agressiya paytida yuzaga keladi (Lixacheva N.S., 2014).

Gumoral himoya qo'yidagilar orqali amalga oshiriladi: A va G immunoglobulinlar, limfoid hujayralar, limfoid to'qimalarning makrofaglari, o'pka va bronxlar limfa tugunlari. Jumladan, IgA bakteriyalar toksinlarini zararsizlantiradi, IgG nafas yo'llarida bakteriyalarni bog'laydi, oqibatda neytrofillar va makrofaglarning xemotaksisi oshadi (Titova O.N. va b., 2020).

Zotiljamda periferik qon tizimida va bronxlar limfoid tugunlarida o'zgarishlar aniqlanadi, immun tizimining tarkibiy qismlari faollashadi.

Komplement va fagotsitoz tizimida buzilishlar, T-hujayralarining fenotipidagi o'zgarishlar tufayli, sodir bo'ladi va ularning funktsional faolligi oshishi kuzatiladi (Nazarov F.Yu. va b., 2022).

Yallig'lanishning ifodalanishi bilan, zardob sitokinlari (FNO- α , IL-1, IL-4, IL-6, IL-10, MCP-1) miqdori oshadi. Xususan, o'zaro bog'liq bo'lib, ular Endotelial hujayralar tomonidan interleykin hemokinlarini, anafilaksiya substansiyasini ishlab chiqarishini faollashishi, leykotsitlarning adgeziyasi va mobilizatsiyasini kuchayishi, o'tkir faza oqsillari, fibrinogen, leykotsitoz va EChT darajasi tufayli sodir bo'ladi. Bu immunologik ko'rsatkichlar zotiljamda patogenetik ahamiyatga ega bo'lib, kasallikning og'ir kechishi va yuqori o'limini ta'minlaydi (Mavzyutova G.A. va b., 2017).

O'pka to'qimalarining zararlanishida yallig'lanishning immun bosqichida sitotoksik ko'proq T-limfotsitlar ishtirok etadi, ya'ni neytrofillarning fagotsitar funktsiyasini faollashtiradi. T-hujayralarining maxsus subpopulyatsiyasi - tabiiy killerlarni ajratish lozim, ular IL-4 ishlab chiqarishiga va 2-turdagi T-xelperlarni farqlashga ta'sir qiladi (Kovalchuk L.V. va b., 2012).

O'pkada yallig'lanish jarayonining og'irligi T- va B-limfotsitlar, antitanachalar va sitokinlarning faoliyati bilan belgilanadi. Sitokinlar yallig'lanishning kuchayishiga va himoya kuchlarining buzilishiga olib keladi, ular ham protektiv rolini o'ynaydi va o'pka to'qimasini destruktiviyasiga yordam beradi (Rabson A., 2006).

Nafas a'zolari viruslari, toksik ingalyantlar, tamaki tutuni bu mexanizmlarni buzadi va yuqumli jarayonning paydo bo'lishiga yordam beradi.

Sitokinlarning yuqori darajasi (yallig'lanishga oid) patologik jarayonning faolligi va ifodalanganligidan dalolat beradi, ular yallig'lanish va immun javobning amplitudasi va davomiyligini ham tartibga soladi (Yakovlev A.A., 2020). To'qimalar makrofaglarining faollashishi va yallig'lanishga hos sitokinlarning sekretsiyasi, xususan, TNF-a, IL-8, IL-6 va IL-1, o'tkir yallig'lanish reaksiyasini boshlaydi (Okumura Y. et al., 2013), bu gipotalamusga ta'sir ko'rsatib, isitma boshlanishini chaqiradi. Immunitet reaksiyasini qo'zg'atish, ya'ni hujayrali javoblar, monositlar/makrofaglar tomonidan ishlab chiqarilgan TNF-a bilan bog'liqdir (Nedospasov S.A., 2020; Martin K.R. et al., 2017).

Yallig'lanish reaksiyasining rivojlanishida TNF-a ning asosiy urni aniqlandi, ya'ni u IL-8, IL-6 va IL-1 ajralishini rag'batlantiradi, neytrofil granulotsitlar uchun hemoattraktant bo'lib xizmat qiladi, makrofaglarni faollashtiradi, T- va B-limfotsitlarning ko'payishiga yordam beradi (Romanova E.N. va b., 2013). Yallig'lanish jarayonlari va septik shokning asoratlari, TNF-a ishlab chiqarishini ko'payishi tufayli bo'lishi mumkin. TNF-a yallig'lanish reaksiyasining boshlanishi va shakllanishi uchun mas'ul bo'lganligi sababli, u "erta reaksiya sitokini" deb ataladi (Kuzkov V.V. va b., 2020). PCT ishlab chiqarishning asosiy stimulyatorlari bakterial endotoksinlar bilan birga TNF-a ekanligi aniqlandi. D. Jarczak va boshqalarning tadqiqotlarida, sepsisli bemorlarda TNF-a, IL-8 va IL-6 ko'rsatkichlari tizimli yallig'lanishning ifodalanishi bilan bevosita bog'liqligi va kasallikning ayrim bosqichlarida prognostik xususiyatga ega ekanligi belgilandi (Birkun A.A. va b., 2014).

Yallig'lanishda IL-6 sitokinning ajralishi sodir bo'ladi, bu TNF-a va IL-1

sekretsiyasini bostirish orqali jigar tomonidan o'tkir fazali yallig'lanish oqsillarini faollashishiga va gipotalamus-gipofiz-buyrak usti bezi tizimining stimulyatsiyasiga yordam beradi, natijada yallig'lanishni tartibga solishga hissa qo'shadi (Gründel A., 2015; Hasegawa-Ishii S. Et al., 2016). Yuqoridagilarga asoslanib, IL-8 va IL-6 sitokinlar yallig'lanishga hos va yallig'lanishga qarshi sifatida qabul qilinadi (Golovkine G. Et al., 2014; West N.R., 2019).

Isitma, leykotsitoz, trombositoz, yallig'lanishning o'tkir bosqichidagi oqsillarning qondagi miqdorining oshishi kabi to'qimalarning zararlanishining klinik-laborator mezonlarining asosiy mediatorlari IL-8, IL-6 dir. Ular ta'sirida plazmatsitoz va gipergammaglobulinemiya rivojlanadi, hamda gipotalamus-gipofiz-buyrak usti bezi tizimi faollashadi (Suprun E.N., 2015; Guillon A. Et al., 2017).

Yallig'lanishga oid va yallig'lanishga qarshi agentlarning funktsiyalarini IL-8 va IL-6 birlashtirib, B-limfotsitlar proliferatsiyasining kofaktorlari va mustaqil differentsiatsiya omili bo'lib, barcha sinflarning immunoglobulinlarini ishlab chiqarishni rag'batlantiradi. Ular IL-1 va TNF-a ning yallig'lanishga oid, o'tkir fazali xususiyatlari ta'sirini birlashtiradi, hamda antitanachalar ajratishi va patogenni samarali eliminatsiyasini orqali IL-4 ning yallig'lanishga qarshi ta'sirini ta'minlaydi (Hamon Y. Et al., 2016).

Proliferatsiya induksiyasida ishtirok etuvchi IL-8, IL-6 yallig'lanishning o'tkir bosqichidagi hepatotsit oqsillari, B- va T-limfotsitlar sintezining asosiy faollashtiruvchilari hisoblanadi. Ular makrofaglar tomonidan IL-1, TNF-a ishlab chiqarishni bostirish orqali, yallig'lanish jarayonining tugashiga hissa qo'shadilar. Yallig'lanish o'chog'ida tegishli nishonli hujayralar mavjudligi va ularning IL-8, IL-6 ga sezgirligi, interleykinlarning yallig'lanish reaksiyasiga nisbatan muqobil ta'sirini aks ettiradi va turli bosqichlarda amalga oshiriladi (Kovalchuk L.V. va b., 2012; Hofer N. Et al., 2013).

Chet ellik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, kasalxonadan tashqari pnevmoniya bilan og'rigan bemorlar qonida IL-6 va IL-8 darajasining oshishi, yuqumli asoratlar rivojlanishining diagnostik belgisi bo'lib, ularning sezgirligi taxminan 87-

100% ni tashkil qiladi [148]. IL-8, IL-6 miqdorining oshishi o'pka to'qimasini zararlanishi hajmi bilan bevosita bog'liqlik, hamda zotiljamni noqulay kechishi belgisidir [230,233]. Sitokinlar darajasi yallig'lanish jarayonining og'irligi bilan o'zaro bog'likdir. Shu bilan birga, IL-8, IL-6 va TNF-a miqdorlari, tizimli yallig'lanishning rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, patologiyaning muayyan bosqichlarida sitokinlar prognostik xarakterga egadir. Ko'p tadqiqotchilar TNF-a, IL-8 va IL-6 darajalarini, yallig'lanish jarayonining faolligini baholash uchun ishlatilishi mumkinligiga qayd etishgan (Romanova E.N. va b., 2013; Lo B. et al., 2015).

Th17 hujayralari ko'p sonli sitokidlarni, asosan IL17A, IL17F, IL21 va IL22 larni ajratadi. Odamning ko'plab immunyallig'lanish kasalliklari (revmatoid artrit, psoriasis, psoriatik artrit, ichak yallig'lanishli kasalligi, TKV, allergik kasalliklar, transplantatsiya immuniteti, semizlik, kanserogenez, aterogenez) immunopatogenezida asosiy urinni immunitetning polarizatsiyasi egallaydi va u Th17 hujayralarining shakllanishiga yo'naltirilgan. Shu bilan birga, IL17 muhim fiziologik funktsiyani bajaradi, ja'ni organizmni bakterial va zamburug' infeksiyalaridan himoya qiladi (Nasonov E.L. va b., 2013).

IL17A - bu dimerik glikoproteindir (15 kDa), u 155 aminokislotadan tashkil topgan. Asosiy biologik funktsiya tug'ma va ortirilgan immunitet o'rtasidagi o'zaro ta'sirni ta'minlashdir (Zhu S. Et al., 2012). IL17A immunokompetent hujayralarning keng doirasi (mast hujayralari, neyetrofillar, dendritik hujayralar, $\gamma\delta$ -T hujayralari, makrofaglar, tabiiy killer hujayralar) tomonidan sintezlanishi isbotlangan (Onishi R.M. et al., 2010).

Hozirgi vaqtda IL17A ning revmatoid artrit va boshqa yallig'lanishli bo'g'im kasalliklarining immunopatogenezidagi muhim rolini ko'rsatadigan etarlicha tadqiqotlar mavjud (Kellner H., 2013).

Bundan tashqari, boshqa hujayra populyatsiyalari IL-17A va IL-17F ning muhim manbalari bo'lishi mumkinligi aniqlandi. Bularga CD8+ sitotoksik hujayralar va tug'ma to'qimalarga xos hujayralar kiradi, ular ekzogen omillar ta'sirida tez faol bo'lishadi. (Huber M. et al., 2013). Mastosit hujayralari IL-17 ni

hujayradan tashqari bo'shliqdan retseptorlar vositachiligidagi endositoz orqali olishi va keyinchalik yallig'lanishni rag'batlantirish uchun uni chiqarishi mumkinligi aniqlandi. Taxminlarga ko'ra, neyetrofillar IL-17 ni hujayradan tashqari tuzoqlar orqali chiqaradi (Noordenbos T. et al., 2016).

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, yallig'lanish jarayonining biologik markerlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda, ular nafaqat pnevmoniya tashxisini qo'yishga yordam beradi, balki ular salbiy klinik oqibatlar xavfini va davolash samaradorligini baholash uchun ham ishlatilishi mumkin (Rylance J. et al., 2015). NIP o'pka to'qimalarida yallig'lanishiga tizimli javobi bilan birga kechishi sababli, ushbu yondashuv antropometrik, anamnestik, klinik va laboratoriya parametrlariga asoslangan xavfni baholash tizimlari mezonlari, kasallikning kechishini bashorat qilish uchun yallig'lanishning ushbu biomarkerlari istiqbolli ilmiy yo'nalishga aylanadi (Qu Y. et al., 2018).

Hozirgi payti yallig'lanishning biomarkerlariga prokalsitonin (PCT), C-reaktiv oqsil (CRO), bir qator yallig'lanishga xos sitokinlar (IL-8, IL-6, IL-2, TNF-a) kiradi. NIP ning erta tashxislash va kechishini bashoratlash maqsadida, prokalsitonin, sitokinlar va boshqa biomarkerlardan kompleks foydalaniladi (Anderson J. et al., 2021; Seren S. et al., 2018).

NIP rivojlanishining patogenetik mexanizmlarida yallig'lanish jarayonining darajasini, patologiyaning og'irligi va kechishini aniqlaydigan yallig'lanishga oid sitokinlar alohida urin tutadi. Hozirgi vaqtda ushbu muammoni o'rganishning dolzarbligi NIPdagi boshqa biomarkerlar bilan solishtirganda, sitokinlarning to'liq o'rganilmaganligi, NIP kechish bashorati va oqibatini aniqlash uchun etakchi ko'rsatkichlarni aniqlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarning ahamiyatligidir. Hozirgacha NIPda yallig'lanish biomarkerlarining diagnostik va prognostik jihatlardagi roli to'liq aniqlanmagan.

Nospetsifik interstitsial pnevmoniyaning diagnostik mezonlari

Zamonaviy tibbiyotning dolzarb vazifasi turli xil fiziologik va patologik jarayonlarning molekulyar jihatlarini, keyinchalik patogenetik jihatdan asoslangan terapiya usullarini ishlab chiqish bilan o'rganishdir.

Diagnostika va davolash taktikasini aniqlashda, orttirilgan zotiljamga chalingan bemor ahvoli og'irligini dastlabki baholash muhimdir. Hozirgi payti bu kabi bemorlar asosan ambulatoriya yoki uyida davolanmoqda. Ularni shifoxonaga yotqizish mezonlarini ishlab chiqish zamon talabidir. Zotiljamni og'irligini aniqlash va davolash bo'yicha bir qator klinik va laborator shkalalari tavsiya etilgan (David A. et al., 2018; Sucher A. et al., 2020).

Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda PORT shkalasi qo'llaniladi (Pneumonia Outcomes Research Team), u 20 ta klinik va laborator mezonlarni o'z ichiga oladi, unga asoslanib zotiljam og'irligi indeksi (PSI - pneumonia severity index) hisoblanadi. Bu indeksga ko'ra, o'lim xavfi bashorat qilinadi va davolash joyi aniqlashtiriladi. Indeksni hisoblashda bir qator biokimyoviy ko'rsatkichlarni o'rganish lozim, lekin tibbiy muassasalarida aniqlash imkoniyati yo'qdir (Leshenko I.V. va b., 2015).

Zotiljamning og'irligini aniqlashda CURB-65 shkalasi tavsiya etilgan (confusion - ongning buzilishi, urea - karbamid azot > 7 mmol / l, respiratory rate - nafas olish tezligi ≥ 30 / min, low blood pressure - past qon bosimi, age ≥ 65 - yoshi ≥ 65 yil). Unga qo'ra bemor 2 ball yoki undan ko'p yig'sa, u kasalxonada joylashtiriladi (Tamma Pranita D. et al., 2017).

Yaqinda shifoxonadan tashqari og'ir zotiljamni SCAP reyting shkalasi (severe community-acquired pneumonia score) ishlab chiqildi. Uning mezonlari: qon pH $< 7,30$, sistolik bosim < 90 mm.sim.ust, ongning buzilishi, karbamid azot $> 10,71$ mmol / l, nafas olish tezligi daqiqada > 30 , rentgenogrammada ko'pbo'lakli ikki tomonlama o'pka zararlanishi, PaO₂ < 54 mm sim.ust.teng, PaO₂/FiO₂ < 250 mm sim.ust.teng, yoshi ≥ 80 yosh (Fesenko O.V. va b., 2014).

U keng tarqalgan zotiljam og'irlik indeksi (pneumonia severity index – PSI) va Britaniya Torakal Jamiyat ining (British Thoracic Society) CURB-65 shkalasi bilan taqqoslandi. Zotiljamli bemorlarda salbiy oqibatlar ko'rib chiqildi: ahvoli

og'irlashib reanimatsiyaga o'tkazish, hamda su'niy ventilyatsiya apparatiga ulash, sepsisning rivojlanishi, patogenlarga qarshi davoning foydasizligi. SCAP, PSI yoki CURB-65 shkalalari bo'yicha baholash ballari ortishi, yuqorida qayd etilgan salbiy oqibatlarini oshiradi ($p < 0,001$).

Bir guruh tadqiqotchilar kasalxonadan tashqari zotiljamni og'irligini aniqlash shkalalarni qiyosiy tahlilini bajardilar. Asosan APACHE-II, SOFA, CURB-65, CRB-65, PORT va SMRT-CO shkalalar validatsiyasi o'tkazildi. Natijada, shifoxonadan tashqari og'ir zotiljam populyatsiyaion bashorat aniqlashda, taqqoslanadigan mezonlar ahamiyati isbotlandi (Avdeev S.N. va b., 2022).

Oxirgi yillari klinik amaliyotda matematik modellardan foydalanish, qiziqish uyg'otmoqda. Ular kasallikning klinik belgilari, laborator va instrumental tadqiqotlar natijalariga asoslanadi, hamda diagnostikaning yuqori darajasini ta'minlaydi (Oralbekova J.M., 2013; Yudin A.A. va b., 2017).

Kasalliklarni etiologiya, patogenezi, immun mezonlari asosida, matematik modellarini yaratish mumkin.

Hozirgi payti, zotiljamni aniqlashda ko'krak qafasi a'zolari rentgenograiyasini qo'llash, diagnostikaning "oltin standarti" hisoblanadi (Amosov V.I. va b., 2015; Amosova N.A. va b., 2016).

Bakterial patogenlar keltirib chiqaradigan zotiljamga, bir hil infiltratlar shaklida o'pkaning bo'lakli siqilishining rentgen tasviri xosdir. Hujayra ichidagi mikroorganizmlar keltirib chiqaradigan zotiljamlarda retikulotugunchali infiltratlar ko'proq uchraydi, o'pkaning asos mintaqalarida ikki tomonlama stromal infiltratlar joylashadi. Ko'pincha yallig'lanish jarayoni o'pkani pastki bo'laklarini zararlaydi (Lindenbraten L.D., 2013).

Umumiy qon tahlili zotiljamli bemorlarda majburiy tekshiruv usulidir. Periferik qondagi leykotsitlar soni $10-12 \times 10^9 / l$ - dan ortsa, bakterial zotiljamdan dalolat beradi. Leykotsitoz $25 \times 10^9 / l$ dan ortishi yoki leykotsitopeniya $3 \times 10^9 / l$ pasayishi, og'ir zotiljamga hosdir va noxush salbiy oqibatga ega (Kruglyakova L.V. va b., 2014).

Arterial qonning gaz tarkibini aniqlash, reanimatsiyaga yotqizilgan og‘ir zotiljamli bemorlar uchun majburiydir. Bu muolaja, boshqa o‘pka kasalliklari, qonni kislorod bilan to‘yinishi kamaygan yoki pulsoksimetriyasi 92% dan past bo‘lgan bemorlarda qo‘llaniladi. Og‘ir zotiljamli bemorlar uchun SpO₂ ni doimiy nazorat qilish kerak (Chuchalin A.G., 2017).

Proteolitik fermentlar tizimini o‘rganish alohida qiziqish uyg‘otadi. Turli kasalliklarning patogenezi haqidagi tushunchani kengaytirish, davolashning yangi usullarini asoslash va amaliy tibbiyotga joriy etish uchun ushbu fermentlarning ishlashi va regulyatsiyasi xususiyatlarini aniqlash zarur (Birkun A.A. va b., 2014).

Xususan, surunkali respirator kasalliklarga moyillikni shakllantirishda proteoliz tizimlari va yallig‘lanish mediatorlari genlarining roli isbotlangan (Aralov N.R. va b., 2019; Walls A.C. et al., 2017).

Bronxoo‘pka tizimning tug‘ma nuqsonlari va mukovistsidozli bolalarda proteoliz-antiproteolizning klinik ahamiyati aniqlandi (Solovyova Yu.V., 2013).

O‘pka yallig‘lanishi patogenezida etakchi mexanizmlardan biri bu o‘pka to‘qimalarining buzilishiga va surunkali obstruktiv o‘pka kasalligining shakllanishiga olib keluvchi proteinazalar va ularning ingibitorlarining disbalansidir (Boxio R. et al., 2016).

Bronxoo‘pka patologiyani davolashda proteinaz ingibitorlari va antioksidantlardan foydalanishning asosi bronxoo‘pka kasalliklar patogenezida proteolitik ta'sirning selektiv rolidir (Vladimirova E.B. va b., 2018; Lane J.R., et al., 2022).

Interstitsial pnevmoniya xavfini bashorat qilish usullari ishlab chiqilgan. Xususan, interstitsial pnevmoniyaga shubha qilingan shaxsda interstitsial pnevmoniya (o‘pka fibrozi) uchun yomon prognozni aniqlash uchun biomarkerlar, usullar va test tizimlari taqdim etilgan. Usul ko‘rsatilgan ob'ektdan olingan biologik namunada quyidagilardan kamida bittasini aniqlashni o‘z ichiga oladi: genetik variant mavjudligi, marker genining ifodalanish darajasi yoki quyidagilardan iborat guruhdan tanlangan marker genlarning ko‘pligi: guruhdan tanlangan ketma-ketlik bilan kamida 95% identifikatsiyaga ega bo‘lgan marker

geni yoki ularning gomologlari yoki variantlari; marker genlari bilan kodlangan polipeptidlar; polipeptid fragmentlari va marker genining hech bo'lmaganda bir qismini to'liq to'ldiruvchi polinukleotid (Abdullaev A.Yu., 2012).

O'pka va tush ortining o'ziga xos bo'lmagan yallig'lanish va yomon sifatli o'sma jarayonlarini differentsial tashxislash usuli taklif etilgan. Bunda marker sifatida 199T1-xlorid ishlatiladi, sintigrafiya planar variantda olib boriladi va $RI_{180} < -0,182ER + 1,197$ bo'lsa, nospetsifik yallig'lanish jarayoni aniqlanadi, $RI_{180} > -0,182ER + 1,197$ bo'lsa, yomon sifatli o'sma jarayoni tashxisi qo'yiladi (Kurajov A.P. va b., 2012).

Pnevmoniyani laborator diagnostikasi usullarining mohiyati shundan iboratki, qon zardobidagi A surfaktant oqsili miqdori va/yoki D surfaktant oqsili miqdori immunoferment tahlili (IFT) yordamida tekshiriladi va agar A surfaktant oqsili miqdori 49,56 ng/ml dan ortiq bo'lsa, yoki D surfaktant oqsili darajasi 234,39 ng/ml dan ortiq bo'lsa, pnevmoniya tashxisi qo'yiladi. Bu usul travmatik emas va pnevmoniyani o'z vaqtida tashxislash imkonini beradi (Voevoda M.I. va b., 2014).

Erta tug'ilgan chaqaloqlarda bronxo'o'pka displaziyada glyukokortikosteroidlar va kontrikallarning proteoliz va uning ingibitorlari faoliyatiga ta'siri aniqlandi (Zagastokova A.X., 2011).

Tajribali zotiljamda, o'pka yallig'lanish jarayoni kechishini korrektsiyalash maqsadida antibiotik ishlatilgan, natijada proteinazlar (elastaza) faolligi pasaygan, bu bakterial ifloslanish pasayishi bilan bog'liqdir, ya'ni fagotsitlarning infiltratsiyasi va faolligining pasayishi tufayli (Sherbak V.V. et al., 2011).

O'pka patologiyasida proteinaza-ingibitor tizimining nomutanosibligini maqsadli davolash uchun dori-darmonlar ishlab chiqilmagan, lekin boshqa vositalar bilan davolashda bu hisobga olinmayapti (Zhang Z. et al., 2015).

Shu munosabat bilan, zotiljamni davolash uchun ko'rsatilgan antibiotiklar, hamda antiproteinaza va antioksidant ta'sir mexanizmli vositalar ta'sirida elastaza o'zgarishlarni solishtirish ayniqsa qiziqarlidir (Chernyaev A.L. va b., 2017; Ceelen J.J.M. et al., 2017).

Neytrofil granulotsitlarning tanani gomeostazini saqlash va ta'minlashdagi urni muhimdir. Granulotsitlar o'sishi bosqichida neytrofil elastaza ajratiladi. Hujayralar qon oqimiga tayyor fermentlar bilan tushib, proteolitik ta'sir qilib, hujayradan tashqari matriks elementlarini buzib, o'pka va havo yo'llarini tuzilishiga zarar keltiradi (Tsai P.K. et al., 2019). Og'ir astmada yallig'lanishning neytrofil komponentining ko'rinishlaridan biri bo'lgan elastaza faolligi oshishi aniqlandi. Neytrofil elastazaning yuqori miqdori og'ir bronxial astmada qaytalanishiga olib kelishi mumkin (Boxio R. Et al., 2016; DuMont A.L. et al., 2015).

Ferment ko'pchilik eruvchan oqsillarni (surfaktant oqsili A, immunoglobulinlar, koagulyatsion omillar, komplement komponentlari va ko'plab proteaza ingibitorlari) parchalaydi (Grabowski P. Et al., 2019). Shuningdek, u yallig'lanish joylariga leykotsitlar infiltratsiyasi va ularning mikrotomirlarda to'planishi jarayonlariga yordam beradi. α antitripsinga ta'sir qilib, uni reaksiya joyiga neytrofillar oqimini kuchaytiruvchi hemoattraktantlarga ajratadi. Bakterial devorning tarkibiy qismlarini parchalab, bu ferment enterobakteriyalarning endotoksinlarini yo'q qiladi, ularning patologik ta'sirini kamaytiradi, gramm-manfiy mikroorganizmlardan himoya qilishda ishtirok etadi va gramm-musbatlarga ta'sir qilmaydi. Ferment, shuningdek, makrofaglarning lipopolisaxarid retseptorlari va fosfatidil retseptorlarini parchalaydi, bu fagotsitozni sekinlashishiga va antigenlarning kiritilishida yallig'lanishga qarshi javobning pasayishiga yordam beradi (Mouradian G.C. et al., 2017; Shin J. et al., 2014).

O'pka to'qimalarining elastikligining pasayishi, og'ir patologiyada, "oksidant-antioksidant" va "proteoliz - antiproteoliz" tizimlaridagi nomutanosiblik bilan izohlanishi mumkin, ferment faolligining oshishi qayd etilgan. Bronxial astmada ushbu tizimda nomutanosiblikning rivojlanishiga o'xshash reaksiya surunkali obstruktiv o'pka kasalligida ham kuzatiladi.

Neytrofil elastaza yallig'lanishni regulyatori bo'lgan yallig'lanishga oid va yallig'lanishga qarshi agent sifatida harakat qilishi mumkinligi aniqlandi. Elastazaning inaktivatsiyasi $\alpha 1$ -antitripsin tomonidan amalga oshiriladi, bu

proteazalar tomonidan o'pka parenximasining zararlanishidan himoya qiladi va ularning ortiqcha miqdorini ingibitsiya qiladi. Antiproteazalarning himoya reaksiyasi pnevmofibroza, emfizema, bronxlar va qon tomirlarini qayta qurish, o'pka to'qimasini destruktiv va ifodalangan yallig'lanish reaksiyasini bostirishga qaratilgan (Ayala P. et al., 2018; Pariollaud M. et al., 2018).

Elastazaning uzoq vaqt ishlab chiqarilishi, to'qimalarga sezilarli darajada zarar etkazishi mumkin. Bir qator mualliflar boshqa patologiyalarda (artrit, miokard ishemiyasi, pankreatit, o'pka emfizemasi, nefrit, sepsis, arterial gipertenziya, bronxoektaziya, surunkali obstruktiv o'pka kasalligi, 2-toifali qandli diabet) neytrofil elastaza kontsentratsiyasining oshishini qayd etdilar (Chichkova N.V., 2012; Franz J. et al., 2015).

Elastaza fermentini ko'p ajralishi qo'yidagilarga olib keladi: epiteliy buzilishi, qadakalsimon hujayralarining giperplaziyasi, shillimshiqni ko'payishi, mukotsiliar vazifasi buzilishi, biriktiruvchi to'qimada fibroplastik jarayonlarni avj olishi, bronxlarning qayta barpo etilishi va bronxial o'ta sezuvchanlik rivojlanishi. Hamda, elastaza endoteliylararo birikmalarni kamaytirib, kapillyar uzanini qisqarishiga, emfizemani rivojlantiradi. Neytrofillar va makrofaglar mahsulotlari ham alveolyar devorlarning emirilish jarayonida ishtirok etadi. Ularning induktori shu ferment hisoblanadi (Kawakita Y. et al., 2016; Nathan N. et al., 2019).

Shunday qilib, neytrofil elastaza bilvosita kollagen va jelatinni buzilishiga ta'sir qiladi. Ferment faolligiga, proteinaza ingibitorlari tizimi (α 1-antitripsin, α 2-makroglobulin va boshq.) ta'sir qiladi. Ya'ni, ingibitorlar kamayishi, fermentning faollashishi va yallig'lanish ifodalanishini chaqiradi (Small D.M. et al., 2015; Strzelak A. et al., 2018).

Demak, fermentni ishlab chiqarishi o'zgarishi, uning aylanma ingibitorlari darajasi yoki faolligi, neytrofil elastazaning faolligi va uning ingibitorlari o'rtasidagi nomutanosiblikning mavjudligi bilan bog'liqdir. Bu nafas olish yo'llari kasalliklari, xususan, nospetsifik interstitsial pnevmoniya rivojlanishida neytrofil elastaza rolining muhimligini ko'rsatadi.

Adabiyot ma'lumotlarini o'rganib, biz interstitsial pnevmoniya endi kam uchraydigan kasallik emasligiga amin bo'ldik. Vizualizatsiya texnologiyalari, morfologik verifikatsiya yordamida diagnostika imkoniyatlari kengayib borayotganiga qaramasdan. Shu bilan birga, proteoliz fermentlarining ushbu patologiyaning kechishiga ta'siri etarli darajada o'rganilmagan. Shuni ta'kidlash kerakki, elastaza fibroz tolalali shakllanishlarning rivojlanishini nazorat qiluvchi asosiy ferment hisoblanadi.

Shu munosabat bilan elastaza fermenti miqdorini o'rganish amaliyotchi shifokorlar uchun diagnostik, prognostik va profilaktika imkoniyati sifatida qaraladi. Ushbu masalalar bo'yicha adabiyotlarda ma'lumotlarning kamligi va o'zgaruvchanligi, mintaqada interstitsial pnevmoniyaning shakllanishini erta tashxislash va prognoz qilish bo'yicha aniq tavsiyalarning yo'qligi, ushbu yo'nalishdagi keyingi maqsadli tadqiqotlar istiqbollari belgilaydi.

NOSPETSIFIK INTERSTITIAL PNEVMONIYA DIAGNOSTIKASINING KLINIK VA LABORATOR TA'MOYILLARI METODOLOGIYASI VA MONITORINGINING KLINIK TAVSIFI VA TADQIQOT USULLARI

Belgilangan vazifalarni hal etish uchun Samarqand davlat tibbiyot universitetining 4-sonli ichki kasalliklar kafedrası negizida va Samarqand shahar tibbiyot birlashmasi pulmonologiya bo'limida bemorlar tanlanib, tekshiruvlar o'tkazildi.

Quyidagi uslublaridan foydalanildi:

I. Umumiy klinik: anamnez yig'ish, fizikal quriq, qon tekshiruvi;

II. Instrumental: ro'krak qafasi a'zolarining rentgenografiyasi, kompyuter tomografiyasi, spirometriya;

III. Immunologik: 1. Qon zardobidagi neytrofil elastaza darajasini IFA usuli yordamida aniqlash; 2. O'zR FA Immunologiya va odam genomikasi instituti immunoregulyatsiya bo'limida IFT usulida qon zardobidagi interleykinlar (IL-1 β , IL-17A) darajasini aniqlash (immunoregulyatsiya bo'limi mudiri – t.f.d., professor Z.S.Kamolov, direktor – akademik, t.f.d. T.U.Aripova);

IV. Statistik.

Umumklinik tekshiruv uslublari

Jami 140 nafar NIP tashxisli bemor tekshirildi. Nazorat guruhini 30 nafar YuIK va GK, hamda 30 nafar sog'lom inson tashkil qilgan.

Bemorlarni klinik tekshiruv payti anamnezni yig'ildi, fizikal tekshiruv, va qon tahlili o'tkazildi.

Qo'shilish mezonlari quyidagilar edi: 18 yoshdan oshgan; o'pka to'qimalarida rentgen tekshiruv bilan tasdiqlangan infiltratlar; quyidagi alomatlardan biri: balg'amli yo'tal, isitma va o'pkada NIPga xos auskultativ tasvir.

Kushilmagan bemorlar: har qanday immunitet tanqisligi holati bilan; faol o'pka sili bilan; ushbu infeksiya rivojlanishidan oldingi 4 hafta ichida kasalxonada davolangan yoki oldingi 3 oy ichida mikroblarga qarshi kimyoterapiya preparatlarini qo'llagan bemorlar.

Tashxis klinik va laborator-instrumental ko'rsatkichlarning kombinatsiyasi asosida tasdiqlangan. Klinik tekshiruv shikoyatlarni o'rganish, anamnezni yig'ish, fizikal tekshiruv, shuningdek, kasallikning kechishini dinamik kuzatishda edi. Rentgen va immunologik tadqiqotlar natijalari hisobga olindi (Chuchalin A.G. va boshq., 2014).

Birinchi bosqichda tekshirilgan bemorlar shartli ravishda bemorlar NIPning kechish og'irligiga ko'ra - engil 16 ta (11,4%) (NIPEK), o'rta og'ir 59 kishi (42,1%)(NIPO'K) va og'ir 65 (46,4%)(NIPOK) shartli guruhlariga ajratildi.

Quyidagi mezonlarga qo'ra zotiljamning og'ir kechishi etib belgilandi: nafas olish tezlashgan (> 30), $SpO_2 < 90\%$, sistolik arterial qon bosimi (SQB) < 90 mm sm. ust. teng, diastolik arterial qon bosimi (DQB) < 60 mm sm. ust. teng., o'pkani bir nechta bo'lagining zararlanishi, ongni buzilishi, o'pkadan tashqi infeksiya o'chog'i (meningit, perikardit va boshqalar), anuriya, leykopeniya ($< 4 \times 10^9/l$), gipoksemiya, gemoglobin < 100 g/l, gematokrit $< 30\%$, o'tkir buyrak etishmovchiligi (qonda kreatinin $> 176,7$ mkmol/l, karbamid azot $> 7,0$ mmol/l).

Shuningdek, barcha bemorlarda shikoyatlari, hayot va kasallik anamnezi, fizikal tekshiruvdan so'ng quyidagi laborator ko'rsatkichlari baholandi: umumiy qon tahlili + eritrotsitlar cho'kish tezligi (EChT), neytrofil elastaza miqdori, neytrofillarning fagotsitik faolligi; balg'amni sitologik tekshiruvi; sitokinlar profili: qon zardobida IL-1 β , IL-17A miqdori.

Qon zardobidagi neytrofil elastazaning miqdoriy kontsentratsiyasi test tizimlari (BioKhimMak, Moskva) yordamida immunoferment tahlili uslubi orqali aniqlandi.

Qon zardobidagi interleykinlar (IL-1 β , IL-17) kontsentratsiyasi "VEKTOR-BEST" (Rossiya, Novosibirsk) ning test tizimlaridan foydalangan holda qattikfazali immunofermentli tahlili (IFT) usuli bilan aniqlandi.

Tekshiruv guruhlarida qo'yidagilar aniqlandi: a) o'pka to'qimasi havoligi, emfizema; b) kam havoli va havosiz joylar (atelektaz); d) qon tomir-stroma manzaraning kuchayishi; e) peribronxial qoplamalar tufayli o'pka manzarasini kuchayishi; f) o'pka manzarasining deformatsiyasi; g) o'choqli infiltratsion zichlanishlar; h) pnevmofibrozo, pnevmoskleroz o'choqlari.

Bemorlar ko'krak qafasi rentgenografiyasi natijalari 22-jadvalda keltirilgan.

22-jadval


An'anaviy ko'krak qafasi rentgenogrammasi bo'yicha NIP li bemorlarda rentgenologik ko'rinishlar

Rentgenologik ko'rinishlar		Asosiy (n=140)			Taqqoslash(GK va YuIK)
		NIPEK (n=16)	NIPO'K (n=59)	NIPOK (n=65)	
O'pka to'qimasi havoligi	abs.	9	34	38	3
	%	56,25	57,62	58,46	10,0
havoning ko'paygan joylari	abs.	6	20	19	2
	%	37,5	33,9	29,23	6,7
havoning susaygan	abs.	4	34	39	2

joylari	%	25,0	57,62	60,0	6,7
o'choqli infiltratsion zichlanishlar	abs.	3	15	18	4
	%	18,75	25,42	27,69	13,33*
O'pka (qon tomir-interstitsial) tasvirining kuchayishi	abs.	14	56	65	4
	%	87,5	94,91	100,0	13,33**
peribronxial qoplamalar	abs.	2	9	11	2
	%	12,5	15,25	16,92	6,7
pnevmoskleroz, pnevmofibroz o'choqlari	abs.	11	29	33	7
	%	43,75	49,15	50,77	23,33
Plevral asoratlar	abs.	2	9	11	4
	%	12,5	15,25	16,92	13,33
Yurakni o'ng bo'limi tufayli tush orti sohasini kengayishi	abs.	1	5	6	10
	%	6,25	8,47	9,23	33,33

Izoh: Asosiy guruh va taqqoslash guruhi: * - $p < 0,001$; ** - $p < 0,01$


Asosiy guruhda NIPEK bo'lgan 14 bemorda o'pka (qon tomir-interstitsial) tasvirining kuchayishi kuzatildi (6-rasm)



6-rasm. - NIPEK li bemorning o'pka rentgenogrammasi, 55 yosh.

NIPEK li bemorlarda asosan quyidagi o'zgarishlar aniqlandi: o'pka to'qimalari shishishi (9), o'pkaning havodorligi ko'chayishi (6) va pasayish joylari (4), bronxlar atrofi qoplamalar (2) va pnevmoskleroz o'choqlari (11). O'pkada kichik o'choqli zichlanishlar faqat 3 nafar bemorda kuzatilgan.

NIPO‘K li bemorlar (n=56) o‘pka rentgenogrammalarida, o‘pka (tomir-mezenximal) manzarasining ko‘chayishi kuzatildi. O‘pka manzarasining buzilishi faqat 14 bemorda, o‘pka to‘qimalarining havoli shishishi - 34 sida qayd etilgan. NIPO‘K bilan og‘rigan 15 bemorda o‘pkaning ichki zonalarida o‘choqqa o‘xshash soyalar (kichik o‘choqli zichlanishlar) aniqlangan. Shuningdek, o‘pkaning havodorligi ortgan (n=20) va pasaygan (n=34) joylari almashindi. (7-rasm). Peribronxial qoplamalar 9 ta holatda qayd etilgan. Plevra asoratlari ham 9 ta holatda, yurakning o‘ng bo‘limlari tufayli kattalashishi - 5 bemorda.



3.7-rasm. - NIPST bilan B. bemorning, 64 yoshda, to‘g‘ridan-to‘g‘ri va yonbosh proektsiyasida rentgenogrammasi.

NIPO‘K bilan og‘rigan bemorlarda rentgenologik ko‘rinishlardan farqli o‘laroq, NIPOK bo‘lgan bemorlarda ko‘krak qafasi rentgenogrammalarida peribronxial qoplamalar (n=11) va pnevmofibroza/pnevmoskleroz o‘choqlari (n=33) topilgan. NIPOK bo‘lgan barcha bemorlarda (n=65) o‘pka manzarasining deformatsiyasigacha kuchayishi kuzatildi. 38 bemorda o‘pka to‘qimalarining havoli shishishi aniqlangan.

Rentgenografiyaga natijalariga ko‘ra, NIP li bemorlarni 96,43% (n=135) hollarda o‘pka (tomir-interstitsial) manzarasining kuchayishi, 29,17% hollarda uning deformatsiyasi, bemorlarning 81 tasida (57,85%) o‘pka to‘qimalarining

shishishi kuzatilgan. Pnevmofibroz, pnevmoskleroz o'choqlari 73 ta (52,14%), o'pkaning ichki zonalarida o'choqqa o'xshash soyalar (kichik o'choqli zichlanishlar) - 25,71% (n=36), ko'pincha NIPO'K va NIPOK lar guruhlarida aniqlangan. NIP guruhidagi bemorlarda 32,14% hollarda (n=45) o'pkaning havodorligi kuchaygan joylari, 55,0% (n=77) hollarda havosi pasaygan joylari aniqlangan.

GK va YuIK bilan og'rigan bemorlarning o'pka rentgenogrammalarida 4 (13,33%) bemorda o'pka (tomir-interstitsial) tasvirining oshishi kuzatildi. Rentgenogrammalarida quyidagi o'zgarishlar aniqlandi: 4 (13,3%) bemorda o'choqli/infiltrativ soyalar, o'pka to'qimalarining shishishi (10,0%, n=3), peribronxial qoplamalar (6,7%,n=2) va pnevmofibroz/pnevmoskleroz o'choqlari (23,33%, n=7). 4 (13,33%) bemorda plevral asoratlari bo'laklararo plevra reaksiyasi ko'rinishidagi aniqlandi. 10 ta holatda (33,3%) yurakning o'ng yarmi tufayli kattalashishi kuzatildi.

Qiyoslash guruhidagi GK va YuIK li bemorlar (n=30) va NIPEK li bemorlar rentgenogrammalaridagi o'zgarishlarni taqqoslanganda, ularning farqlari nisbiyligi aniqlangan. NIPO'K (n=56) va NIPOK (n=65) li bemorlarda sezilarli darajada ko'proq (86,42%, n=121), NIPEK (n=14) li va taqqoslash guruhidagilarga (13,33%, n=4) nisbatan, tomir-mezenximal manzara kuchayishi ($p=0,001$) va pnevmofibroz o'choqlari kuzatilgan (mos ravishda 49,15%, n=29 va 50,77%, n=33) ($p<0,01$). Infiltrativ soyalar ham yuqoridagi guruhlarda ko'proq aniqlangan ($p=0,001$).

Demak, an'anaviy ko'krak qafasi a'zolarining rentgenografiyasi natijalariga ko'ra, NIP li bemorlarda, NIPEK va taqqoslash ($p=0,01$) guruhiga nisbatan, o'pka (qon tomir-interstitsial) manzarasining ko'chayishi ko'proq kuzatilgan. O'choqli soyalar NIPO'K va NIPOK li bemorlarga xoslidir ($p<0,001$), hamda nozologik shakliga qarab bog'liklik, ular orasidagi korrelyatsiya bilan isbotlandi ($p<0,001$). Faqat NIPEK li bemorlarda o'pkaning ichki sohalarida kichik o'choqli zichlanishlar kamroq aniqlangan.

NIP guruhidagi bemorlarda 32,14% hollarda (n=45) o'pka havosining ko'chaygan joylari aniqlangan, bu taqqoslash guruhiga qaraganda tez-tez uchraydi (6,7%, n=2). Havoning pasaygan joylari NIP guruhlarida 77 (55,0%) bemorda va taqqoslash guruhida faqat 6,7% hollarda (n=2) kuzatilgan.

NIP bo'lgan guruhlarda plevral asoratlar 2 ta holatda (15,7%) va GK hamda YuIK bo'lgan bemorlarda 13,33% qayd etilgan.

Asosiy guruhlardagi 73 (52,14%) bemorlarda pnevmoskleroz o'choqlari aniqlandi, bu taqqoslash guruhidagilarga nisbatan ko'pdir (23,33%, n=7).

Yuqorida keltirilganlarga asosanib, ko'krak qafasi a'zolari rentgenografiyasi yordamida interstitsial o'pka kasalligiga shubha qilish imkonini beradi, ammo NIP guruhidagi nozologik turini aniqlashni qiyinlashtiradi.


NIP bemorlarda KQAning yuqori aniqlikdagi kompyuter tomografiyasi natijalari

O'pkadagi patologik o'zgarishlar, hajmi va avjlanishini aniqlash maqsadida, bemorlarga ko'krak qafasi a'zolarining yuqori aniqlikdagi kompyuter tomografiyasi (YuAKT) bajarildi.

Natijalariga ko'ra, o'pkada qo'yidagilar aniqlandi: a) hirali shisha joylari; b) infiltratsiyani mezenximal, bronxoalveolyar, plevropnevmonik turi; d) segmentar, segment osti atelektazlar; e) bullyoz, panatsinar, bo'lak markazi, paraseptal emfizema; f) distal bronxiolalarning Y-simonligi; g) bronxoektazlar, bronxioloektazlar; h) peribronxovaskulyar qoplamalar; i) bo'laklararo, bo'laklarichi interstitsiyni kuchayishi; j) pnevmofibrozo, pnevmoskleroz o'zgarishlari.

Shubhasiz, bemorlarning yoshini hisobga olgan holda, NIPEK bilan og'rigan bemorlarda KQA YuAKT natijalari 23-jadvalda ko'rsatilgan bo'lib, undan ko'rinib turibdiki, NIPEK bilan og'rigan bemorlarning aksariyatida (n=13) tarqalgan «hirali oyna» joylari, o'pka to'qimalarining interstitsial turidagi infiltratsiyasi aniqlangan. Emfizematoz joylari (2 bemorda bo'lak markazi emfizemasi) plevra osti zichlanish o'choqlari (n=5) bilan almashildi. 7 bemorda bo'laklarichi interstitiumning

ko‘chayishi kuzatildi, 6 holatda - bronxiolalarning Y-shaklidagi tuzilmalari (8-rasm).



8-rasm. NIPEK bilan og‘rigan U. Bemorning, 57 yosh, ko‘krak qafasining YuAKT

23-jadval.


YuAKT bo‘yicha NIP bo‘lgan bemorlarda rentgenologik ko‘rinishlar

Rentgenologik ko‘rinishlar		Asosiy (n=140)			Taqqoslash(GK va YuIK)
		NIPEK (n=16)	NIPO‘K (n=59)	NIPOK (n=65)	
«Hirali oyna» joylari, Interstitial infiltratsiya turi	abs.	13	43	45	3
	%	81,25	72,88	69,23	10,0*
Bronxoalveolyar infiltratsiya turi	abs.				12
	%				40,0
Plevropnevmonik infiltratsiya turi	abs.				
Subsegmentar, segmentar atelektazlar	abs.	2	10	12	2
	%	12,5	16,95	18,46	6,67
Sentrilobulyar emfizema	abs.	2	13	15	3
	%	15,5 ^x	22,03	23,07 ^x	10,0**
Panlobulyar emfizema	abs.		28	31	
	%		47,46 ^x	47,69 ^x	
Paraseptal emfizema	abs.				6
	%				20,0**
Bullyoz emfizema	abs.		3	4	
	%		5,08	6,15	
Bronxoektazlar, bronxioloektazlar	abs.	2	10	12	2
	%	12,5	16,95	18,46	6,67****
Peribronxial qoplamalar	abs.	6	18	20	10
	%	37,5	30,5	30,77	33,33
bo‘laklararo interstitsiyni kuchayishi	abs.		10	12	4
	%		16,95	18,46	13,33
bo‘laklarichi interstitsiyni kuchayishi	abs.	7	5	5	2
	%	43,75	8,47	7,69	6,67
Y- tuzilmali bronxiolalar	abs.	6			
	%	37,5			
Ifodalangan cheklangan	abs.	5	23	25	4

pnevmo-fibro-z, subplevral zichlanish o'choqlari	%	31,25	38,98	41,54	13,33
Diffuz pnevmoskleroz, «ari uyali o'pka» tasviri	abs.		4	6	
	%		6,77	9,23	

Izoh: Asosiy guruh va taqqoslash guruhi: * - $p < 0,001$; ** - $p < 0,01$; *** - $p < 0,05$.

NIPEK bilan og'rigan bemorlar guruhida 13 bemorda interstitsial infiltratsiya turi, asosan o'pkaning markaziy qismlarida "hirali oyna" joylari, shuningdek, 2 bemorda markazlashtirilgan emfizema qayd etilgan. Boshqa o'zgarishlar kamroq: 7 tasida bo'laklarichi interstitsiyning kuchayishi, 6 tada peribronxial qoplamalar, 2 tada subsegmentar atelektazlar. O'choqli pnevmofibro-z NIPO'K li 23 bemorda va NIPOK li 25 bemorda aniqlangan (9-rasm).



9–rasm. NIPO'K bilan og'rigan B. bemorning, 64 yosh, ko'krak qafasining YuAKT.

NIPOK bo'lgan 45 bemorda interstitsial infiltratsiya turi, "hirali oyna" joylari ham qayd etilgan, ular tarqoq xarakterga ega. 4 nafar bemorda bullyoz emfizema, 31 nafar bemorda panlobulyar emfizema aniqlangan. 12 tasida o'pkalarning o'rta va pastki sohalarida bo'laklararo mezenximani kuchayishi, pnevmofibro-z, zichlanish o'choqlari kuzatildi, ayrim keksa yoshlilarda «ari uyali o'pka» manzarasini shakllanishi aniqlandi.

Shunday qilib, ko'krak qafasi a'zolarining YuAKT natijalariga ko'ra, 101 (72,14%) bemorda o'pka to'qimalarining stromal infiltratsiyasi aniqlangan. NIPO'K li bemorlarda ko'proq o'pkaning markaziy qismlarida joylashgan "hirali oyna" manzaralari kuzatilgan; NIPEK va NIPOK bo'lgan bemorlarda "hirali oyna" zonalari keng tarqalgan. NIP bo'lgan barcha asosiy guruhlarda (12,14%, n=17)


bo'laklarichi interstitiumning kuchayishi aniqlandi. Faqat NIPO'K va NIPOK bo'lgan bemorlarda bo'laklararo interstitsiy ko'proq darajada kuchaygan (15,71%, n=22). 63,57% hollarda (n=89) o'pkada markazlashtirilgan va panlobulyar emfizema aniqlangan, NIP bo'lgan barcha guruhlarda esa faqat sentrilobulyar emfizema, NIPO'K va NIPOKda esa panlobulyar emfizema ham kuzatilgan. Shuningdek, NIPning oxirgi 2 guruhida (5,0%) bullyoz emfizema aniqlangan. Tekshirilayotgan bemorlarning 17,14% subsegmentar atelektazlar kuzatildi (NIPEK bilan 2 bemor, NIPO'K bilan 10 va NIPOK bilan 12 bemor). Bronxiolalarning Y-shaklidagi tuzilmalari (37,5%, n=6), faqat NIPEK bilan og'rigan bemorlarda aniqlangan. Ko'krak qafasining KT natijalariga ko'ra o'pka to'qimalarida aniq fibrosklerotik o'zgarishlar asosiy guruhdagi 53 (37,85%) bemorlarda aniqlangan va NIPOK bilan og'rigan bemorlarda (41,54%, n=25) ko'proq uchraydi. Faqat oxirgi NIP guruhlaridagi 10 (7,14%) bemorlarda, diffuz pnevmofibrozni "ari yuali o'pka" oqibatiga o'tishi kuzatilgan.

Taqqoslash guruhida (GK va YuIK) ko'pincha bronxoalveolyar infiltratsiya turi (40,0%, n=12), o'pka to'qimalari infiltratsiyasining stromal turi 3 (10,0%) ta bemorda aniqlangan. 10,0% hollarda (n=3) sentrilobulyar emfizema aniqlangan. 13,33% hollarda (n=4) bo'laklararo interstitsiyni kuchayishi kuzatildi. Peribronxial qoplamalar 10 (33,3%) bemorda qayd etilgan (10-rasm). O'choqli pnevmofibrozi 13,33% hollarda (n=4) kuzatilgan.

NIPEK (n = 16) bilan og'rigan bemorlarda va taqqoslash guruhidagi GK va YuIK bo'lgan bemorlarda (n = 30) tomogrammalardagi o'zgarishlarni solishtirsak, asosiy guruhdagi bemorlarda ishonchli darajada tez-tez, «hiral oyna» maydonlarni ($p=0,001$; 81,25%, n=13 va 10,0%, n=3 mos) va emfizematoz havoli shish ($p=0,001$; 15,5%, n=2 va 6,67%, n=2 mos) topiladi. Infiltrativ va peribronxial qoplamalar ko'proq NIPEK li bemorlarda va taqqoslash guruhida aniqlandi ($p=0,001$; $p=0,01$ mos).

NIPO'K (n=59) va NIPOK (n=65) li bemorlarda ko'proq (72,88%, n=43) va (69,23%, n=45), GK va YuIK (n=30) li bemorlarga (10,0%, n=3) nisbatan, tomir-mezenximal manzaraning kuchayishi kuzatildi ($p=0,001$). Taqqoslangan guruhdagi

bemorlarda (30,64%, n=38) o'choqli/infiltrativ o'zgarishlar sezilarli darajada ko'p ($p=0,001$) kuzatilgan.



10-rasm - Surunkali bronxit bilan og'rigan H. bemor, 19 yosh, YuAKTsi.

Demak, NIP li bemorlar guruhida o'pka to'qimalari infiltratsiyasining asosiy turi mezenximaldir. "Hirali oyna" manzarasi nospetsifik belgi bo'lib, jarayonni avjlanish darajasini tavsiflaydi, ko'proq asosiy guruhlardagi 101 (72,14%) bemorda aniqlangan ($p=0,001$). NIPEK li bemorlarda ko'proq o'pkaning markaziy qismlarida "hirali oyna" tasviri kuzatiladi ($p<0,01$). NIPO'K va NIPOK li bemorlarda "hirali oyna" maydonlar keng tarqalgan bo'lib, NIPEK da ko'pincha o'pkaning bazal va orqabazal qismlarida joylashgan.

NIPEK li bemorlarda (43,75%, n=7), NIPO'K va NIPOK li guruhlariga nisbatan, ko'proq darajada bo'laklarichi interstitsiyning kuchayishi aniqlandi. NIPO'K va NIPOK li bemorlarda bo'laklararo interstitsiy kuchaygan.

Asosiy guruhdagi bemorlarda emfizematoz havoli shishlar ishonchli darajada ko'proq kuzatilgan ($p=0,001$). Bundan tashqari, kompyuter tomografiyasida emfizematoz shish paydo bo'lgan joylar NIPEK uchun eng tipik hisoblanadi ($p=0,01$). 63,57% hollarda (n=89) o'pkada markazlashtirilgan va panlobulyar emfizema aniqlangan, NIP li barcha guruhlarda esa faqat sentrilobulyar emfizema, NIPO'K va NIPOKda esa panlobulyar emfizema ham kuzatilgan.

KT larda bronxoektazlar/bronxioloektazlar asosiy guruhdagi barchasida yorqin ifodalangan (17,14%, n=24). NIPEK guruhini 8,33% hollarida eksplorator sinamalar paytida havo tutqichining alomati aniqlangan.

Faqat NIPEK li bemorlarda bronxiolalarning Y-shaklidagi tuzilmalari (37,5%, n=6) kuzatilgan.

Ko'krak qafasi a'zolarining KT natijalariga ko'ra, o'pka to'qimasida yorqin fibrozli o'zgarishlar 53 tasida (37,86%) aniqlangan va foizda ko'proq NIPEK li bemorlarda uchraydi. Olingan ma'lumotlarga ko'ra, NIPOK (41,54%) li bemorlar uchun, mayda havo yo'llarini zararlanishi, bronxlar atrofi sklerozi va periferik bronxlar tirkishi torayishi xosdir. Tomogrammalarda plevra osti joylashgan zichlashish o'choqlari NIPOK va NIPOKga nisbatan, asosan NIPEK li bemorlarda aniqroq ifodalangan. Diffuz pnevmofibroz oqibati "ari uyasi o'pkasi" ga utishi, faqat NIPning so'nggi guruhlaridagi 10 (7,14%) bemorlarda kuzatilgan, bu o'pka arxitektonikasining nozik to'rli qayta tuzilishi bilan tavsiflanadi.

Shunday qilib, NIPning rentgenologik belgilari: o'pka shaffofligining keng tarqalganligi yoki mahalliy susayishi, o'pka manzarasini uning buzilishiga qadar kuchayishi, o'choqli pnevmoskleroz. O'pka zararlanish tabiatini aniqlash uchun KQA ning YuAKT bajarildi, bu esa NIPni tasdiqlash yoki istisno qilish imkonini beradi.

Barcha holatlarda, NIP guruhidagi bemorlarda YuAKT kasalliklarning keng doirasini farqlash va anamnez ma'lumotlarini, laborator va instrumental tekshirish usullari natijalarini hisobga olgan holda, NIPEK (hujayra turi), NIPOK (aralash turi) va "NIPOK" (fibrozli turi) tashxisini aniq belgilashga imkon berdi.

Quyida, ushbu toifadagi bemorlarning klinik-rentgenologik xususiyatlarini aniq ko'rsatuvchi NIP guruhidagi bemorlarning klinik misollari keltirilgan.

1-misol. Bemor D., 54 yoshda, yo'tal va hansirashga shikoyatlari bilan ShTBga yotqizilgan. Anamnezdan: oxirgi kunlari yo'tal, hansirash bezovta qiladi. Bronxial pnevmoniya tashxisi bilan kuzatilgan. Og'iz orqali glyukokortikosteroidlar (GKS), hamda ingalyatsiyon IGKS (IGKS) qabul qilgan.

Qabul bo'limida: ahvoli o'rtacha og'irlikda, terisi toza. Suyak-bo'g'im tizimida o'zgarishlar yo'q. Tomog'i kizarmagan. Perkussiyada timpanik tovush, auskultativ - qattiq nafas, yumshoq krepatatsiyalovchi hirillashlari aniqlandi.

Ko'krak qafasi a'zolari rentgenogrammasida - o'pka to'qimalari havoli, pastki maydonlari shishish tufayli notekis. O'pka manzarasi kuchaygan, buzilgan, to'rsimon-ilmoqli. Diafragma gumbazlari chegaralari aniq, sinuslari erkin.

KT tomogrammasida (11-rasm) o'pka to'qimalari notekis havoligi, havoli tarqalgan joylari bilan va emfizematoz shish o'choqlari kuzatiladi. S3 proektsiyasi va chapdan mediobazal bo'limlarda yumshoq infiltratsion zichlanishlar aniqlandi. Maxalliy pnevmofibroz o'zgarishlari, plevra osti zichlanish o'choqlari chapdan S5 va S8larda joylashgan.

O'pka manzarasi peribronxovaskulyar o'zgarishlar bilan, ayrim joylarida buzilgan. Ildiz oldi sohada bronxlar devorlari qalinlashgan. Plevromediastinal, diafragma usti bitishmalar. Xulosa: bronxopnevmoniya oqibatidagi nospetsifik interstitsial pnevmoniya (hujayra turi).



11.-rasm. D. bemorining, 54 yosh, KQA YuAKT

Tekshiruv natijalariga qo'ra qo'yidagi tashxis qo'yildi: nospetsifik interstitsial pnevmoniya (hujayrali turi), engil kechishi.

2-misol. Bemor B., 44 yosh, quruq yo'tal, hansirash shikoyatlari bilan ShTBga yotqizilgan. Anamnezdan: 3 oydan buyon hansirash va samarasiz yo'tal bezovta qilmoqda. Anamnezida allergiya rad etiladi. Qishloqda, pechkali uyda yashaydi.


Qabul bo'limida: holati o'rtacha og'irlikda. Terisi toza. Suyak-bo'g'im tizimi me'yorda. Tomog'i qizarmagan. Perkussiyada qutili tovushi, auskultatsiyada zaiflashgan nafas, yumshoq krepitatsiyalovchi hirillashlar aniqlanadi.

KQA rentgenogrammasida - o'pka to'qimalarining havoligi notekis. O'pka manzarasi qon tomir-mezenximal va peribronxial komponent tufayli kuchaygan. Diafragma gumbazlarining chegaralari aniq, sinuslari erkin.

Kompyuter tomografiyasida (12-rasm) o'pka to'qimalarining notekis havoligi, hamda «hiral oyna» kabi belgilar aniqlangan. O'ngdan S1 da, o'rta

bo'lakning proektsiyasida va chap tomonda S1 -2 da. S6 proektsiyasi va orqa asos hududlarda plevra osti tarzda kichik infiltratga o'xshash o'zgarishlar mavjud. O'pka manzarasi o'rtacha darajada kuchaygan, ba'zi joylarda qo'pol ravishda buzilgan. Yagona plevromediastinal, diafragma usti bitishmalar. Xulosa: KT manzarasi nospetsifik interstitsial pnevmoniya o'zgarishlariga bevosita bog'liqdir.

Tashxis: nospetsifik interstitsial pnevmoniya (aralash turi), o'rta og'ir kechishi.



12-rasm. B. bemorining, 44 yosh, KQA YuAKT

Ushbu patologiyada "hiral oyna" simptomi boshqa barcha belgilarga nisbatan ustunlik qiladi, degan fikr mavjud. Shu bilan birga, W.D.Travis va boshq. katta material ustida tadqiqot o'tkazishdi va bu hodisani NIP li bemorlarning atigi 44 % aniqlashdi, bronxoektazlarni 82%, retikulyar pattern 96% va pastki bo'laklarning bujmayihi 77% hollarda aniqlandi. "Ari uyali o'pka" zonalar odatda bu patologiya uchun atipikdir. Turli tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, ular bemorlarning 5-30% da uchraydi, ularning tarqalishi esa o'pkaning umumiy yuzasining 10% gacha kamrab oladi.

Rentgenologik manzara umuman olganda nospetsifik interstitsial pnevmoniyaning morfologik patternini aks ettiradi. Yallig'lanish (hujayra) kichik turi «hiral oyna» ustunligi va "ari uyali o'pka" yo'qligi bilan tavsiflanadi (13-rasm). Fibrozli va aralash subtiplar yanada xilma-xil simptomatikani aks ettiradi, barcha to'rtta asosiy rentgenologik belgilar bir vaqtning o'zida turli darajada ifodalanadi, shuningdek (lekin har doim emas) "ari uyali o'pka" tasviridir .



13-rasm. O‘pkaning KT si. YuAKT kesim – plevra osti zichlanishlar ko‘rinadi, «hirali oyna» maydonlari va retikulyar patternlar aniqlanadi.

Ta’kidlash lozimki, NIP li bemorlarda mumkin bo‘lgan topilmalar zichlanish o‘choqlari hisoblanadi. Ushbu alomat bir vaqtning o‘zida tashkiliy pnevmoniya mavjudligini aks ettirishi mumkin, shu bilan NIP bir tadqiqotda bemorlarning 50% da bir-biriga mos keladi.

Patologiya kechishi odatda NIPning avjlanishi sifatida, qabul qilingan klinik belgilarni kuchayishi davrlari bilan birga bo‘lishi mumkinligi aniqlandi. NIPning kuchayishining aniq sabablari oxirigacha aniqlanmagan, ammo infeksiyon omillar yoki to‘satdan beqarorlashtiruvchi hodisalar, o‘pka emboliyasi, pnevmotoraks, o‘tkir yurak etishmovchiligi va boshqalar kabi eng ko‘p bo‘lishi mumkin. Noto‘g‘ri davolash yoki asosiy davolashni bekor qilish, NIPning kuchayishiga ham olib kelishi mumkin. Ushbu davrda KTda «hirali oyna» zonalari kengayadi va zichlanishning yangi joylari paydo bo‘ladi.

Tush orti limfa tugunlarining kengayishi kuzatilishi bu patologiyaga juda xosdir, garchi bu alomat boshqa interstitsial pnevmoniyalarda uchrasa ham. C.A. Souza va boshq. ma’lumotlariga ko‘ra, interstitsial pnevmoniyali 206 bemorlar orasida ko‘krak ichi limfadenopatiya 81% da, respirator bronxiolit 71% da va o‘pka fibrozi bemorlarning 66% da uchraygan.

NIP uchun juda xarakterli bo'lgan yana bir alomatni ta'kidlash kerak, bu saqlanib qolgan o'pka to'qimalarining simmetrik nozik plevra osti chiziqlari (subpleural sparing), keyin retikulyar va yallig'lanish o'zgarishlarining mavjudligidir.

Shunday qilib, YuAKT texnologiyalaridan foydalangan holda o'tkazilgan nurli tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, nospetsifik interstitsial pnevmoniya bilan og'rigan bemorlar uchun hujayrali kichik tipida «hiral oyna» ustunligi va "ari uyali o'pka" yo'qligi bilan tavsiflanadi, fibrozli yoki aralash kichik tiplarida esa, bir vaqtning o'zida turli darajada barcha asosiy to'rtta rentgenologik belgilar va hamda (lekin har doim emas) "ari uyali o'pka" tasviri ifodalanadi. Shuningdek, saqlanib qolgan o'pka to'qimalarining simmetrik nozik plevra osti chiziqlari mavjudligi, keyinchalik retikulyar va yallig'lanish o'zgarishlari xarakterlidir.

Tashqi nafas olish funksiyasini tekshirish (spirometriya)

Tashqi nafas olish funksiyasining (TNOF) buzilishini aniqlash uchun NIP ga chalingan bemorlarda spirografiya (n=140) bajarildi. TNOF o'rtacha ko'rsatkichlari 24-jadvalda keltirilgan.

24-jadval.

NIP bilan og'rigan bemorlarda TNOF parametrlari

Ko'rsatkich	NIPEK, n=16	NIPO'K, n=59	NIPOK, n=65
JNChH ₁ , %	75,68±3,76	74,23±1,69	70,61±1,01
JNChH ₁ , %*	107,41±12,76	84,02±21,56	74,93±17,41
YuHT, %	79,81±3,23	78,81±1,53	75,47±0,88
YuHT, %*	104,12±12,18	88,79±16,38	77,36±14,57
LHT50, %	44,75±5,0	41,58±2,06	37,5±1,58
LHT 50, %*	93,18±23,44	51,05±24,02	38,33±18,42
LHT 75, %	34,06±5,28	31,36±2,19	27,25±1,69
LHT 75, %*	77,08±30,51	35,36±21,87	21,05±14,41
O'HT 25-75, %	43,25±5,74	40,7±2,55	34,93±1,91
O'HT25-75, %*	92,07±24,41	50,11±25,13	32,08±17,11
JNChH ₁ /FO'TS, %	78,21±7,87	62,45±8,13	60,43±11,96
JNChH ₁ / FO'TS,	84,62±7,38	69,36±11,87	64,15±7,88

%*			
----	--	--	--

*Izoh: * - bronxolitikni ingalatsiyadan keyin o'lgan; ** - normal taqsimot bilan tavsiflangan namunalarda uchun o'rtacha qiymat va standart og'ishning qiymati ($M + \sigma$) ko'rsatilgan.*

Tadqiqot natijalariga ko'ra, bemorlarning barcha guruhlarida tashqi nafas olish funksiyasining (TNOF) buzilishi ifodalangan xarakterga ega bo'lgan.

NIPEK guruhidagi tekshirilgan bemorlarning 20,83% da JO'TS va JNChH-1 ko'rsatkichlari qisman yoki o'rtacha darajada pasaygan. Tiffno indeksini 70% dan ortiq oshishi, hamda JO'TS va JNChH-1 ko'rsatkichlarining 75% dan kam pasayishi, NIPOK li bemorlarning 32,18% va NIPO'K li 36,25% da kuzatilgan, bu TNOF buzilishning restriktiv xususiyatidan dalolat beradi. NIPEK li 28,33 % da va NIPO'K li bemorlarning 16,25% da o'zgarishlar aralash xarakterga ega (ko'proq restriktiv). NIPEK li bemorlarning 14,17% da obstruktiv buzilishlar aniqlangan. NIPEK 18,33% da va NIPO'K li bemorlarning 14,17% da bronxial o'tkazuvchanlik kamayishi kuzatildi.

Taqqoslash guruhidagi bemorlarda (GK va YuIK) TNOF buzilishlari aniqroq bo'lgan. Bemorlarning 16,38% da JO'TS va JNChH-1 ko'rsatkichlari ifodalanishi susaygan, o'rtacha va engil buzilishlari esa bemorlarning 14,89% da aniqlangan.

Bemorlarning 7,45% da Tiffno indeksining 70% dan ortiq ortishi va JNChH-1ning 75% dan kamayishi 7,45% bemorlarda aniqlangan. Chalinganlarning 13,83% da JNChH-1 75% dan kam, Tiffno indeksini kamayishi, JO'TS normal ko'rsatkichi (n=4) yoki uni 75% dan kam (n=9) pasayishi aniqlangan, bu nafas olish buzilishini obstruktiv yoki aralash turiga xosdir.

Demak, JO'TS, JNChH-1, LHT 25, LHT 50, LHT 75 ko'rsatkichlari NIPEK guruhidagi bemorlarda va nazorat guruhlarida sezilarli darajada yuqori edi ($p < 0,05$). NIPEK li bemorlarni 20,83 % JO'TS ko'rsatkichi kamaygan va bu revmatik patologiyaga chalinganlarda ifodalangan. Tiffno indeksi 70% dan ortiq bo'lishi va JO'TS, hamda JNChH-1 ni 75% dan kamayishi NIPOK li bemorlarning 32,18% va NIPO'K li 36,25% da kuzatilgan, ya'ni TNOFni restriktiv buzilishga xosdir.

NIPEK li 28,33 % da va NIPO'K li bemorlarning 16,25 % aralash o'zgarishlar (ko'proq restriktiv). NIPEK li 18,33 % da va NIPO'K li bemorlarning

14,17 % da bronxlar o'tkazuvchanligi buzilgan. Taqqoslash guruhida ventilyatsiya buzilishining obstruksiyaning ustunligi bilan, aralash turi asosan kuzatilgan, ammo ayrim hollarda (7,45%) restriktiv buzilishlar ham aniqlangan.

Pulsoksimetriya natijalari

Qon saturatsiyasi buzilishini aniqlash uchun NIP bilan og'riqan bemorlarda pulsoksimetriya (n=140) o'tkazildi. Tekshiruv o'rtacha ko'rsatkichlari 25-jadvalda keltirilgan.

25-jadval.

NIP bilan og'riqan bemorlarda pulsoksimetriya natijalari

Ko'rsatkich	NIPEK, n=16	NIPO'K, n=59	NIPOK, n=65	Sog'lom N=30	GK va YuIK bemorlar N=30
SaO ₂ ,%	86,2±0.75**	83,2±0.51*	80,32±0.61*	95,8±0.10	91,7±0.3*

Izoh: normal taqsimot bilan tavsiflangan namunalarda uchun o'rtacha qiymat va standart og'ishning qiymati ($M + \sigma$) keltirilgan. Taqqoslash guruhlarida ko'rsatkichlariga nisbatan farq aniqligi

*** - $p < 0,001$, * - $p < 0,05$.*

Tadqiqot natijalariga ko'ra, qonning saturatsiyasi NIP bilan og'riqan bemorlarda sog'lom shaxslar va GK va YuIKga chalinganlarga nisbatan ancha pasayganligi qayd etildi. Ammo patologiyaga chalingan bemorlarda, nospetsifik interstitsial pnevmoniya kechish og'irligi darajasiga qarab, ko'rsatkichni pasayishi kuzatildi.

NOSPETSIFIK INTERSTITSIAL PNEVMONIYA RIVOJLANISHIDA BIOMARKERLARNING O‘RNI

Nospetsifik interstitsial pnevmoniyada proteoliz fermentlari

Neytrofil elastazaning eng yuqori miqdori og‘ir va o‘rtacha NIP bo‘lgan guruhlarda, engil guruhda kamroq, nazorat guruhlarida (deyarli sog‘lom, GK va YuIK kasalligi bo‘lgan bemorlar) ham kamroq kuzatildi. Shu bilan birga, NIPO‘T va NIPOT bo‘lgan bemorlarda tahlil qilingan ko‘rsatkich bo‘yicha, nazorat bilan solishtirganda sezilarli farqlar mavjud (26-jadval).

26-jadval

NIP bo‘lgan bemorlarning turli guruhlarida neytrofil elastaza miqdori

Ko‘rsatkich	Sog‘lom N=30	GK va YuIK bemorlar N=30	NIPEK N=16	NIPO‘K N=59	NIPOK N=65	t	p
Neytrofil elastaza	46,7±1,6	48,92±1,7	105,06±7, 05	111,44±3, 06	111,21±8, 06	3,6	p<0, ,05

Izoh: normal taqsimot bilan tavsiflangan namunalar uchun o‘rtacha qiymat va standart og‘ishning qiymati ($M + \sigma$) keltirilgan.

Shu bilan birga, NIPEK guruhidagi ferment darajasi sog‘lom insonlar guruhidagi tarkibdan nisbatan 2 barovar farq qilgan. O‘rtacha va og‘ir kechadigan guruhlariga qaraganda engil NIPl guruhidagi fermentning past darajasi, mahalliy darajada neytrofil elastaza ta'siridan kelib chiqqanligidan dalolat beradi. Bunda ingalyatsion va tizimli steroidlarning elastaza ko‘rsatkichlariga ta'sirini istisno qilib bo‘lmaydi.

NIPO‘T va NIPOT li bemorlarda qon zardobidagi fermentning (neytrofil elastaza) nisbatan yuqori darajalari aniqlandi, ular sog‘lom guruhi va GK va YuIK bilan kasallangan bemorlarga nisbatan statistik jihatdan farq qiladi ($p<0,05$). NIPEK guruhidagi ferment ko‘rsatkichi boshqa guruhlariga qaraganda sezilarli darajada past edi ($p<0,05$).

Shuni ham ta'kidlash kerakki, NIP bilan og‘rigan bemorlarda ferment va periferik qondagi eozinofillarning mutlaq soni o‘rtasida salbiy munosabatlar mavjud. Balg‘amning sitologik tekshiruvi bo‘yicha o‘rtacha yallig‘lanish NIP li

bemorlarning qon zardobidagi neytrofil elastazani solishtirganda sezilarli farqlar aniqlandi.

Balg'am fenotipiga qarab, NIP ga chalingan bemorlarda neytrofil elastaza miqdori tahlil qilindi. Ma'lumotlar 27-jadvalda keltirilgan.

27-jadval

NIPEK bemorlar					
	Kichikgranulotsitarli	Eozinofilli	Neytrofilli	Aralash	P*
Neytrofil elastaza	102,8	101,7	101,1	102,8	0,23
FGS	90,6	91,4	93,5	92,1	0,68
NIPO'K bemorlar					
	Kichikgranulositarli	Eozinofilli	Neytrofilli	Aralash	P*
Neytrofil elastaza	106,4	106,2	102,1	106,5	0,36
FGS	93,1	92,7	93,8	94,4	0,93
NIPOK bemorlar					
	Kichikgranulositarli	Eozinofilli	Neytrofilli	Aralash	P*
Neytrofil elastaza	111,6	107,6	111,1	112,6	0,21
FGS	91,4	94,6	82,7	85,6	0,06

Izoh: * $p < 0,001$ darajasida ishonchli muhim korrelyatsiya.

Tadqiqot ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, NIP chalingan bemorlarda o'rganilayotgan parametrlar (neytrofil elastaza) qiymatlarida ijobiy guruhlararo farqlar (balg'am fenotiplari bo'yicha) aniqlanmadi.

Yallig'lanish shakllanishida neytrofil elastaza muhimligini, balg'amli yo'tal mavjud bemorlarda ferment ko'rsatkichi balg'amsizga qaraganda balandroq edi.

Shuning uchun NIPEK va NIPO'K li guruhlarda balg'amdagi eozinofillarning nisbiy yuqori foizi mavjud, NIPOK li bemorlarga nisbatan neytrofillar soni nisbati yuqori bo'lgan. Shu bilan birga, NIP li guruhlarining bemorlari balg'amdagi elementlarning nisbati (epiteliya, makrofaglar, neytrofillar, limfotsitlar, monotsitlar) bo'yicha bir-biridan farq qilmadi. Balg'am sitogramma natijalariga ko'ra, NIPOK li guruh o'rtacha yallig'lanish bilan tavsiflangan, NIPEK li bemorlar esa otkirroq yallig'lanishga egadir. Shuni ta'kidlash lozimki, NIPO'K li bemorlar yallig'lanishning tabiati bo'yicha ushbu guruhlar o'rtasida oraliq o'rinni egallagan.

Barcha tekshirilgan bemorlarda balg'am va qondagi eozinofillar soni o'rtasida bevosita bog'lamlik aniqlandi. NIPOK li bemorlar balg'amidagi neytrofillar ulushi va JNChH₁ o'rtasida manfiy bog'lam, va balg'amdagi makrofaglar miqdori va JNChH₁ o'rtasida musbat bog'lam mavjuddir. Hamda, NIPOK guruhida EChT va balg'amdagi neytrofillar ulushi o'rtasida musbat bog'lam, yoki EChT va balg'amdagi makrofaglar tarkibi o'rtasida manfiy bog'lam aniqlangan (28-jadval).

28-jadval

Neytrofil elastazaning ko'rsatkichlari, tizimli yallig'lanish darajasiga qarab neytrofillarning fagotsitar faolligi - EChT, periferik qondagi leykotsitlar.

Guruh	EChT	Leykotsitlar
NIPEK	16,43	7,49
NIPO'K	28,0	6,97
NIPOK	28,35	6,85
GK va YuIK bemorlar	14,13	6,20
Sog'lom	6,0	6,03

NIPEK li bemorlar ushbu guruhdagi yallig'lanishning aniq darajasini tavsiflovchi eng yuqori EChT bilan tavsiflangan. Boshqa guruhlarda, shuningdek, taqqoslash guruhida EChT darajalari mos referens ko'rsatkichlari doirasida qayd etilgan. NIPEK li bemorlarda, EChT ko'rsatkichi amalda sog'lom bemorlarga va gipertenziya va yurak ishemik kasalligi bo'lgan bemorlarga nisbatan statistik jihatdan yuqori edi. NIPO'K va NIPOK li bemorlarda EChT darajasi NIPEK li bemorlarga qaraganda statistik jihatdan kamroqdir.

Eozinofiliya yallig'lanish jarayoni to'xtashini anglatadi, ya'ni ferment miqdori pasayadi, yallig'lanishni turli bosqichlari kelib chiqadi.

Shuning uchun neytrofillar soni yallig'lanish darajasi bilan bog'liq bo'lib, bu NIPO'K va NIPEK li bemorlarda ko'proq namoyon bo'ladi. Bemorlarning turli guruhlarida neytrofillarning funktsiyalari turlicha namoyon bo'ldi: xususan, NIPO'K va NIPOK li bemorlarda NE ko'rsatkichi, ya'ni fibrinoz jarayonning zo'ravonligi bilan oshdi; NIPOK li bemorlarda NE ko'rsatkichi nisbatan yuqoridir, bu esa NE darajasini nazorat qilishni talab qiladi. Bemorlarning barcha guruhlarida NE o'zaro bog'likligi aniqlandi, xususan, bu ko'rsatkichlar yallig'lanish darajasi

bilan bog'liq: NIPEK li bemorlarda nisbatan pastroq, NIPO'K li bemorlarda o'rtacha, NIPOK li bemorlarda nisbatan yuqoridir.

Neytrofil elastaza, neytrofillarning fagotsitik faolligini, EChT, leykotsitlar bilan o'rtasidagi mumkin bo'lgan aloqalarni aniqlash uchun korrelyatsiyon tahlili o'tkazildi. Shu bilan birga, bemorlarning deyarli barcha guruhlarida ferment va EChT o'rtasida statistik jihatdan sezilarli farqlar yo'q edi. NIPEK va NIPOK li bemorlarning qonida ferment va leykotsitlar miqdori o'rtasida musbat bog'liklik aniqlandi (29-jadval). Yuqoridagilar NIP rivojlanishida ferment va leykotsitlar ta'sirining bir tomonlama mexanizmi mavjudligini ko'rsatadi.

29-jadval

Tekshirilayotgan bemorlarda neytrofil elastazaning EChT, leykotsitlar bilan o'zaro bog'liqligi aniqlanishi

Guruh	EChT, kor. koef.	Leykotsitlar, kor. koef.
NIPEK	-0,118	0,418***
NIPO'K	0,071	0,401***
NIPOK	0,201	0,568*
GK va YuIK bemorlar	-0,006	0,350
Sog'lom	-0,178	0,113

*Izoh: * $p < 0,001$ darajasida ishonchli muhim korrelyatsiya;*

*** $p < 0,01$ darajasida ishonchli muhim korrelyatsiya;*

**** $p < 0,05$ darajasida ishonchli muhim korrelyatsiya.*

Neytrofillarning fagotsitar faolligi ko'rsatkichlarini o'rganib chiqib, NIPO'K li bemorlarda balg'amni sitologik tekshirish ko'rsatkichi yallig'lanish darajasi bir xil bo'lgan, NIPOK li bemorlarga nisbatan musbat bog'liklik yuqoridir, qon zardobidagi neytrofil elastaza ko'rsatkichi esa NIPO'K li bemorlar NIPOK guruhidagi bemorlarga qaraganda statistik jihatdan yaqin ekanligi aniqlandi (30-jadval).

30-jadval

Balg'amni sitologik tekshirish natijalariga ko'ra o'rtacha yallig'lanish darajasi bo'lgan NIP li bemorlarda neytrofillar va neytrofil elastazaning fagotsitik faolligi ko'rsatkichlari

O'rtacha yallig'lanish darajasi		
Guruh	Neytrofillarni fagotsitik faolligi	Neytrofil elastaza
	M±m	M±m

NIPEK	90,5±3,67	104,1±5,73
NIPO‘K	91,2±2,34	107,5±4,81
NIPOK	93,6±3,55	112,3±7,62

Izoh: normal taqsimot bilan tavsiflangan namunalarda uchun o‘rtacha qiymat va standart og‘ishning qiymati ($M + \sigma$) keltirilgan.

Demak, NIP ga chalingan turli guruhlardagi bemorlarda periferik qondagi neytrofillarning mutloq soni va neytrofil elastaza ko‘rsatkichi o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik mavjud. Ya‘ni neytrofillar degranulyatsiyasi tufayli fermentning ajralib chiqishini tushuntirishi mumkin. Hamda, ifodalangan yallig‘lanish jarayoni bilan NE faollashishi va neytrofillar sonining ko‘payishi ham kuzatiladi.

Nospetsifik interstitsial pnevmoniyada yallig‘lanish biomarkerlari

NIP bilan og‘rigan bemorlarda qon ko‘rsatkichlarining o‘ziga xosligini aniqlash uchun bir qator laborator tadqiqot usullari qo‘llanilgan (umumiy, biokimyoviy qon tahlili va qon immunologik tekshiruvi).

Umumiy qon tahlili natijalariga ko‘ra, barcha tekshiriv guruhlarida ishonchli bog‘lamlar kuzatilmadi. Eritrotsitlar miqdori $4,0 \times 10^{12}$ / l dan kam asosiy guruh bemorlarni 32,86% (46) va nazoratdagilarning 26,66% (8) da kuzatildi. Gemoglobin 110 g/l dan 37 (34,5%) bemorda (asosiy) kam bo‘lgan, ko‘pincha NIPO‘K da. NIPOK li 9 bemorda eozinofiliya (13,85% gacha) kuzatildi. NIPEK kuchaygan bemorlarning 18,75% (n=3) da EChTning 10 mm/soat dan ortiq oshishi kuzatildi, nazorat guruhida bu ko‘rsatkich nisbatan tez-tez kuzatildi - 16 (53,33%) bemorda.

Qon zardobidagi interleykinlar profilining o‘zgarishi

Yallig‘lanish jarayonida NIPda maqsadli hujayralar epiteliy hujayralari, dendritsitlar va makrofaglardir. Odatda, ular IL-1 β , IL-17A, antioksidantlar, leykoproteinaza va sIGA ingibitorlarini yaratishda ishtirok etadilar. Natijada IL-1 β , IL-17A fibroblastlarni faollashtiradi, kollagen ishlab chiqarish ko‘payadi va

to'qimalar zararlanadi, mahalliy fibrozni keltirib chiqaradi va jarayonning surunkali bo'lishiga yordam beradi.

NIP li bemorlarda yallig'lanishga xos sitokinlarning IL-1 β parametrlarini ishlab chiqarishda immunokomponent hujayralar ko'payishi kuzatiladi. Xususan, periferik qonda NIP li bemorlarda IL-1 β sitokinining nazorat guruhiga va gipertenziya va yurak ishemik kasalligiga chalingan bemorlar guruhiga nisbatan sezilarli darajada ko'payishi kuzatiladi (31-jadval).

31-jadval

Qon zardobida IL-1 β miqdori

Ko'rsatkich	Sog'lom N=30	GK va YuIK bemorlar N=30	NIPEK N=16	NIRO'K N=59	NIPOK N=65	t	p
IL-1 β pg/ml	13,7 $\pm$ 0,2	13,56 $\pm$ 0,68	45,12 $\pm$ 2,46	43,4 $\pm$ 1,09	43,1 $\pm$ 8,06	3,1	p<0,01

Izoh: normal taqsimot bilan tavsiflangan namunalar uchun o'rtacha qiymat va standart og'ishning qiymati ($M + \sigma$) keltirilgan.

NIP bilan og'riqan bemorlarning qon zardobida IL-1 β ko'rsatkichi.

IL-1 β ishlab chiqarish darajasini o'rganishda ma'lum bo'ldiki, NIP li bemorlarning barcha guruhlarida kechish og'irligi oshishi bilan periferik qonda yallig'lanishga oid sitokinlar miqdori biroz kamayadi.

NIP li bemorlarning qon zardobidagi IL-1 β ko'rsatkichi kechishiga bog'likdir.

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, NIP patogenezida immunologik mexanizmlarni o'rganish, ya'ni IL-1 β ning roli nafas olish a'zolarida patologik jarayonlarning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Olingan ma'lumotlar nafas olish a'zolarining surunkali takroriy yallig'lanishining oldini olishga va patologiyani tashxislashda yangi yondashuvga yordam beradi.

Demak, NIP li bemorlarda IL-1 β ishlab chiqarish xususiyatlarini aniqlash diagnostika, patogenez va ushbu patologiyada profilaktika choralarini ishlab chiqishga yangi yondashuvga yordam beradi.

NIP li bemorlarning qon zardobida IL-1 β miqdorining pasayishi immunologik o'zgarishlari haqida dalolat beradi. Ishonchli ma'lumki, guruhdan

qat'iy nazar, qon zardobidagi IL-1 β ko'rsatkichi yuqori bo'lib qoladi va patologiyaning rivojlanishi bilan ko'rsatkich miqdori ham kamayadi.

NIP li bemorlarning qon zardobida IL-17A ko'rsatkichini tekshiruvini ham bajarildi.

NIP li bemorlarda yallig'lanishga oid sitokinlarning IL-17A parametrlarini ishlab chiqarishning immunokomponent hujayralarining ko'payishi aniqlandi. Xususan, periferik qonda NIP bo'lgan bemorlarda IL-17A sitokinining nazorat guruhi va gipertenziya va yurak ishemik kasalligi bilan og'rigan bemorlar guruhiga nisbatan sezilarli o'sish kuzatiladi (32-jadval).

32-jadval

Qon zardobida IL-17A miqdori

Ko'rsatkich	Sog'lom N=30	GK va YuIK bemorlar N=30	NIPEK N=16	NIRO'K N=59	NIPOK N=65	t	p
IL-17A pg/ml	12,7 $\pm$ 0,22	15,08 $\pm$ 0,6	59,06 $\pm$ 2,53	56,38 $\pm$ 1,18	52,27 $\pm$ 8,06	4,2	p<0,01

Izoh: normal taqsimot bilan tavsiflangan namunalar uchun o'rtacha qiymat va standart og'ishning qiymati (M + σ) keltirilgan.

IL-17A ishlab chiqarish darajasini o'rganishda ma'lum bo'ldiki, NIP bilan kasallangan bemorlarning barcha guruhlarida kechish og'irligi oshishi bilan periferik qonda yallig'lanishga oid sitokinlar miqdori sezilarli darajada kamayadi.

Yuqoridagi ma'lumotlar NIP rivojlanishining immunologik mexanizmlari bo'yicha yangi diagnostika yondashuvi va patologik jarayonning rivojlanishini patogenetik davolash bo'yicha tavsiyalar uchun asos bo'lishi mumkin.

Shuning uchun, NIP li bemorlarning qonida interleykin 17A ning aniqlanishi, turli patologiyalarda murakkab munosabatlar mavjudligini ko'rsatadi va immunotrop sitokin terapiyasini to'g'ri tanlash imkoniyatiga yordam beradi.

Bronxoalveolyar lavaj suyuqligidagi interleykinlar profilidagi o'zgarishlar

Sitokin parametrlarini tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, NIP li bemorlarda bronxoalveolyar lavaj suyuqligida IL1 β miqdori ko'payadi. Patologiya kechishining barcha bosqichlarida, bir guruh sog'lom shaxslar va gipertoniya va yurak ishemik kasalligi bilan og'rigan bemorlar bilan solishtirilganda (33-jadval).

33-jadval

Bronxoalveolyar lavaj suyuqligidagi IL-1 β miqdori

Ko'rsatkich	Sog'lom N=30	GK va YuIK bemorlar N=30	NIPEK N=16	NIRO'K N=59	NIPOK N=65	t	p
IL-1 β pg/ml	13,7 $\pm$ 2,19	20,1 $\pm$ 3,07	45,1 $\pm$ 3,8	41,6 $\pm$ 4,1	39,1 $\pm$ 1,9	4,2	p<0,01

Izoh: normal taqsimot bilan tavsiflangan namunalar uchun o'rtacha qiymat va standart og'ishning qiymati ($M + \sigma$) keltirilgan.

NIP kechishiga qarab, bronxoalveolyar lavaj suyuqligidagi IL-1 β miqdori patologik darajada yuqoriligicha qoldi.

NIP li bemorlarda bronxoalveolyar lavaj suyuqligida IL-17A miqdori sog'lom insonlar, hamda gipertenziya va yurak ishemik kasalligi bo'lgan bemorlarga nisbatan sezilarli darajada oshgan (34-jadval).

34-jadval

Bronxoalveolyar lavaj suyuqligida IL-17A miqdori

Ko'rsatkich	Sog'lom N=30	GK va YuIK bemorlar N=30	NIPEK N=16	NIRO'K N=59	NIPOK N=65	t	p
IL-17A pg/ml	15,6 $\pm$ 2,12	18,2 $\pm$ 2,17	65,1 $\pm$ 2,7	61,6 $\pm$ 3,9	59,2 $\pm$ 2,1	4,8	p<0,01

Izoh: normal taqsimot bilan tavsiflangan namunalar uchun o'rtacha qiymat va standart og'ishning qiymati ($M + \sigma$) keltirilgan.

NIP kechishiga qaramay, bronxoalveolyar lavaj suyuqligidagi IL-17A miqdori doimiy ravishda yuqori bo'lib qoldi, taqqoslash guruhiga nisbatan.

Demak, yallig'lanishga xos sitokinlar kontsentratsiyasining o'zgarishi yallig'lanish jarayoni darajasining belgilari sifatida baholanishi mumkin (35-jadval).

35-jadval

Yallig'lanishga xos sitokinlar kontsentratsiyasining o'zgarishi

Ko'rsatkich	Sog'lom N=30	GK va YuIK bemorlar N=30	NIPEK N=16	NIRO'K N=59	NIPOK N=65	t	p
IL-1 β pg/ml (qon zardobi)	13,6 $\pm$ 0,2	13,4 $\pm$ 0,3	49,7 $\pm$ 0,3	46,5 $\pm$ 0,3	44,8 $\pm$ 0,2	3,1	p<0,01
IL-17A pg/ml (qon zardobi)	15,1 $\pm$ 3,22	22,4 $\pm$ 3,19	62,3 $\pm$ 4,0	61,9 $\pm$ 4,3	60,7 $\pm$ 0,2	4,2	p<0,01

IL1 β pg/ml(BALS)	13,7 $\pm$ 2,19	20,1 $\pm$ 3,07	45,1 $\pm$ 3,8	41,6 $\pm$ 4,1	39,1 $\pm$ 1,9	4,2	p<0,01
IL-17A pg/ml (BALS)	15,6 $\pm$ 2,12	18,2 $\pm$ 2,17	65,1 $\pm$ 2,7	61,6 $\pm$ 3,9	59,2 $\pm$ 2,1	4,8	p<0,01

Izoh: normal taqsimot bilan tavsiflangan namunalar uchun o'rtacha qiymat va standart og'ishning qiymati ($M + \sigma$) keltirilgan.

Shuning uchun IL1 β va IL-17A tarkibini aniqlangan xususiyatlarini NIPdagi immun tizimining murakkab munosabatlari sifatida ko'rib chiqish mumkin, bu esa ushbu patologiya uchun to'g'ri immunotrop sitokin terapiyasini tanlash imkonini beradi.

Neytrofillarning funktsional faolligi ko'rsatkichlari

Neytrofillar fagotsitoz, kislorod radikallari va proteoliz fermentlari yordamida antifagotsitik faoliyatni amalga oshiradi. Shu bilan birga, NIP li bemorlarda va nazorat guruhlarida (sog'lom insonlar, gipertenziya va yurak ishemiya kasalligi bilan og'rigan bemorlar) neytrofil elastaza parametrlarini tahlil qilish bilan neytrofillarning faolligi va funktsional holatini o'rganish kerak, balg'am fenotiplarini, nafas olish funktsiyasini va davom etayotgan davolash fonida ushbu darajalarning dinamikasini hisobga olgan holda.

36-jadvalda tadqiqot guruhlarida periferik qondagi neytrofillar haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

36-jadval

Periferik qonda neytrofillarni taqsimlanish natijalari

Ko'rsatkich	Sog'lom N=30	GK va YuIK bemorlar N=30	NIPEK N=16	NIRO'K N=59	NIPOK N=65	t	p
Neytrofillar	3,36 $\pm$ 0,12	3,28 $\pm$ 0,16	9,62 $\pm$ 3,1	7,56 $\pm$ 3,6	4,81 $\pm$ 2,5	3,7	p<0,01

Izoh: normal taqsimot bilan tavsiflangan namunalar uchun o'rtacha qiymat va standart og'ishning qiymati ($M + \sigma$) keltirilgan.

Nazorat guruhlarida neytrofillar miqdori me'yorda edi, engil NIP guruhida biroz ko'tarilgan. Ularning yuqori miqdori o'rtacha og'irlik va engil kechish guruhlarida aniqlandi va ularning darajasi yuqoridagi guruhlariga qaraganda statistik jihatdan yuqoridir (mos ravishda p<0,01). Ehtimol, NIPEK guruhidagi

nisbatan yuqori neytrofilioz, kasalxonadan oldingi bosqichda ba'zi bemorlarda tibbiy yordamdan foydalanmaslik bilan izohlanishi mumkin.

NIP li bemorlarda og'ir neytrofiliya mavjudligi, bu bemorlarda yallig'lanishning nisbiy darajasi bilan bog'liq bo'lishi mumkinligini, shuningdek, yallig'lanish jarayonining asosiy hujayralari neytrofillar ekanligini hisobga olish lozim. Shuni ham yodda tutish kerakki, ba'zi bemorlarda glyukokortikosteroidlar qo'llanilgan, bu esa neytrofil yallig'lanishning ustunligiga olib kelishi mumkin.

Glyukokortikosteroidlar, antibiotiklarni neytrofillar ko'rsatkichlariga ta'siri tahlil qilinganda, gormonlarni nafas olish yo'li bilan qabul qilgan bemorlarda, neytrofillar soni yuqori ekanligi kuzatildi ($p < 0,01$). Gormonlarni per os qabul qilgan bemorlarda, o'xshash natijalar qayd etildi.

NIP li tekshiruv guruhlarida tahlil qilinib, antibiotiklarga muhtoj bo'lgan bemorlarda neytrofillar, neytrofil elastaza parametrlari balandligi qayd etildi. Shu bilan birga, NIP ga chalingan bemorlar allaqachon antibiotiklarni olgan bo'lsalarda, ularning miqdori buyurilmaganlarga qaraganda yuqori edi.

Shuning uchun, og'ir kechishi va faol infeksiya bilan bog'liq holda, NIP kechishi periferik qon neytrofililizozi va yallig'lanish jarayonining ifodalanganligi bilan tavsiflanadi.

Gender tahlili natijalariga qo'ra, ayollarda neytrofillar soni va neytrofil elastaza parametrlari erkaklarnikiga qaraganda statistik jihatdan past ekanligi aniqlandi. Katta yoshdagi bemorlarda neytrofillar soni yoshlarga qaraganda yuqori bo'lgan. Shuni ta'kidlash kerakki, NIP li bemorlarda qondagi ko'rsatkichlari og'irlashgan irsiyat mavjudligida nisbatan statistik jihatdan pastroq edi. Genetik omillarning neytrofillar ko'rsatkichlariga, birinchi navbatda, irsiy moyillikka ta'sirini yodda tutish lozim. Neytrofillar va neytrofil elastaza ko'rsatkichlari chekuvchilarda chekmaydiganlarga nisbatan yuqoridir. Ya'ni, tamaki tutuni mukotsiliar klirensiga ta'siri qilib, o'pkada surunkali yallig'lanishning rivojlanishiga olib keladi.

NIP bo'lgan bemorlarda va nazorat guruhlarida qon zardobida IL-1 β , IL-17A sitokinlari aniqlandi. 37-jadvalda sitokinlarning ko'rsatkichlari keltirilgan.

Tekshirilayotgan guruhlarining sitokinlari miqdori.

Diagnoz	IL-1 β	IL-17A
NIPEK	2,2	2,9
NIPO‘K	2,5	4,2
NIPOK	2,1	3,2
GK va YuIK bemorlar	2,5	4,0
Sog‘lom	2,0	1,9
P*	0,076	0,03

Izoh: * $p < 0,001$ darajasida ishonchli muhim korrelyatsiya.

Aniqlanishicha, qon zardobidagi IL-1 β , IL-17A darajasi o‘rganilayotgan bemorlar guruhlarida mos referensli oralig‘ida bo‘lgan (IL-1 β normasi 0-4pg/ml, IL-17 0-5,0 pg/ml).

Neytrofillarning funktsional holatini tavsiflovchi sitokin ko‘rsatkichlari va parametrlarining korrelyatsiya tahlili qo‘llanildi (38-jadval).

Neytrofillarning funktsional holatini tavsiflovchi sitokin ko‘rsatkichlari va darajalari

	IL-1 β	IL-17A
Neytrofillar	NIPOK, $R=0,775$, $P<0,01$	
Neytrofil elastaza	NIPO‘K, $R=-0,811$, $P<0,05$	NIPOK, $R=-0,371$, $P<0,05$
Leykotsitlar fagotsitar faolligi	NIPEK, $R=0,775$, $P<0,05$	NIPO‘K, $R=0,464$, $P<0,05$

Izoh: * $p < 0,001$ darajasida ishonchli muhim korrelyatsiya; ** $p < 0,01$ darajasida ishonchli muhim korrelyatsiya; *** $p < 0,05$ darajasida ishonchli muhim korrelyatsiya.

Shu bilan birga, NIPOK li bemorlarda eng ko‘p ishonchli bog‘lamlar aniqlandi: IL-1 β va neytrofillar, neytrofil elastaza, IL-17A va neytrofillar, shuningdek, leykotsitlarning fagotsitar faolligi. NIPO‘K li bemorlarda IL-17A va leykotsitlarning fagotsitar faolligi o‘rtasida statistik jihatdan to‘g‘ri munosabatlar mavjud. NIPEK guruhida IL-1 β va leykotsitlarning fagotsitar faolligi bo‘lgan bemorlar orasida.

Yuqorida ko‘rsatilishicha, interleykinlarning patologiyani boshlanishi va rivojlanishida, ayniqsa NIPO‘K va NIPOK bo‘lgan bemorlarda ko‘proq, va NIPEK bo‘lgan bemorlarda biroz kamroq ishtirok etishini ko‘rsatadi.

NOSPETSIFIK INTERSTITSIAL PNEVMONIYANING ERTA TASHXISLASHNI MATEMATIK MODELINI YARATISH

Nospetsifik interstitsial pnevmoniyaning kechish og'irligini baholash matematik modelini yaratishda bir qator klinik, laborator va instrumental ko'rsatkichlar inobatga olindi. Tekshirilgan shaxslar 18 yoshdan 81 yoshgacha bo'lgan erkaklar 77 (55,0%), ayollar 63 (45,0%) tashkil qildi.

Bemorlar NIPning og'irligiga qarab uch guruhga bo'lingan: engil kechishi - 16 kishi (11,42%), o'rta og'ir - 59 (42,14%) va og'ir - 65 kishi (46,42%).

NIPning og'irligini erta tashxislash uchun (shifoxonaga yotqizilganidan keyin birinchi kun davomida), matematik modelni tuzishda tekshiruvlar o'tkazildi.

Modellarni qurishda har xil tadqiqot natijalaridan orasidan, eng muhimini tanladik. Statistik diskriminant tahlili asos sifatida qo'llanildi.

Har bir holatda alohida mezon aniqlandi. Ko'rsatkichlarning miqdoriy hissasini baholashda, hisoblangan raqamli qiymat inobatga olindi. Matematik modelga faqat ko'rsatkichni muhimlik darajasi $p < 0,05$ ga to'g'ri keladigan belgilar kiritildi. Laborator ma'lumotlarini – qonni ham yuqori, ham past ko'rsatkichlari inobatga olindi. Matematik modelining asosi - bu eng kichik kvadratlar usuli yordamida qayd etilgan tenglamalar ko'rsatkichlari, konstantasi va koeffitsientlaridir. Koeffitsient ko'rsatkichi kasallik kodi va tegishli ma'lumot mezoni o'rtasidagi korrelyatsiya belgisiga mos keldi.

Nospetsifik interstitsial pnevmoniyani erta tashhislash modelini tuzish

Ma'lumki, rentgen tekshiruvida aniqlangan mos segmentlar, bo'laklarning infiltratsiyasi, pnevmoniyani asosiy belgisi hisoblanadi. Matematik modelni yaratishda, infiltratsiyaga eng axborotli belgi sifatida qaraladi.

Klinik belgilar soni, bevosita yallig'lanish jarayonida o'pkani zararlanish hajmiga bog'liqdir.

Laborator ko'rsatkichlari ham juda axborotlidir, ya'ni qondagi leykotsitlar miqdori, asosan neytrofillar. Bu holat og'ir NIP li ko'plab bemorlarda aniqlangan.

Hozirgi vaqtda qondagi biomarkerlarning tarkibini, xususan, qondagi neytrofil elastaza darajasini, interleykin-1 β , interleykin-17A miqdorini o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu klinik tadqiqotlar bosqichida va NIPning og'irligini keyinchalik aniqlangan bemorlarni, qabul qilishda bemorlarning dinamik monitoringi tufayli amalga oshiriladi.

Spirometriya funktsiyasi eng informatsion belgilardan biridir. Bu belgi nafaqat tashqi nafas olish funktsiyasini, balki nafas olish apparatlarining butun holatini baholashga yordam beradi.

Nospetsifik interstitsial pnevmoniyani erta tashxislash uchun matematik model

Matematik modelni yaratish uchun biz quyidagi belgilarni (axborotli xususiyatlarni) aniqlaymiz:

S_{sim} - quyidagi qiymatlarni olishi mumkin bo'lgan kasallik belgilari soni:

$$S_{sim}(x_i) = \begin{cases} 0, & \text{agar } \sum_{i=1}^n x_i \leq 3 \\ 1, & \text{agar } 4 \leq \sum_{i=1}^n x_i \leq 7 \\ 2, & \text{agar } 8 \leq \sum_{i=1}^n x_i < 11 \\ 3, & \text{agar } 11 \leq \sum_{i=1}^n x_i \leq 14 \end{cases} \quad \text{bunda } x_i - \text{kasallik belgisi, uning qiymati 1}$$

ga teng, ya'ni $x_1=1, x_2=1, \dots, x_n=1$ (n-butun son).

S_{ley} - qondagi leykotsitlar darajasining funktsiyasi, bu quyidagi qiymatlarni olishi mumkin:

$$S_{ley}(k) = \begin{cases} 0, & \text{agar } k \text{ darajasi me'yorda bo'lsa} \\ 1, & \text{agar } k \text{ darajasi nisbiy bo'lsa} \\ 2, & \text{agar } k \text{ darajasi o'rta ko'tarilgan bo'lsa} \\ 3, & \text{agar } k \text{ darajasi yuqori bo'lsa} \end{cases}, \quad \text{bunda } k \text{ ning}$$

qiymati laboratoriyada aniqlanadi.

S_{ney} - qondagi neytrofillar darajasining funktsiyasi, bu quyidagi qiymatlarni olishi mumkin:

$$S_{ney}(n) = \begin{cases} 0, & \text{agar } n \text{ darajasi me'yorda bo'lsa} \\ 1, & \text{agar } n \text{ darajasi nisbiy bo'lsa} \\ 2, & \text{agar } n \text{ darajasi o'rta ko'tarilgan bo'lsa} \\ 3, & \text{agar } n \text{ darajasi yuqori bo'lsa} \end{cases}, \quad \text{bunda } n \text{ ning}$$

qiymati laboratoriyada aniqlanadi.

S_{nel} - qondagi neytrofil elastaza darajasining funktsiyasi, bu quyidagi qiymatlarni olishi mumkin:

$$S_{nel}(m)=\begin{cases} 0, & \text{agar } m \text{ darajasi me'yorda bo'lsa} \\ 1, & \text{agar } m \text{ darajasi nisbiy bo'lsa } (m \approx 105,06 \pm 7,05) \\ 2, & \text{agar } m \text{ darajasi o'rta ko'tarilgan bo'lsa } (m \approx 111,14 \pm 3,6) \\ 3, & \text{agar } m \text{ darajasi yuqori bo'lsa } (m \approx 113,21 \pm 8,06) \end{cases}, \text{ bunda}$$

m ning qiymati laboratoriyada aniqlanadi.

$S_{1\beta}$ - qondagi interleykin- 1β darajasining funktsiyasi, bu quyidagi qiymatlarni olishi mumkin:

$$S_{1\beta}(b)=\begin{cases} 0, & \text{agar } b \text{ darajasi me'yordabo'lsa} \\ 1, & \text{agar } b \text{ darajasi nisbiy bo'lsa}(b \approx 45,13 \pm 2,46) \\ 2, & \text{agar } b \text{ darajasi o'rta ko'tarilgan bo'lsa}(b \approx 47,0 \pm 1,09) \\ 3, & \text{agar } b \text{ darajasi yuqori bo'lsa}(b \approx 49,1 \pm 8,06) \end{cases},$$

bunda b ning qiymati laboratoriyada aniqlanadi.

S_{17A} - qondagi interleykin-17A darajasining funktsiyasi, bu quyidagi qiymatlarni olishi mumkin:

$$S_{17A}(a)=\begin{cases} 0, & \text{agar } a \text{ darajasi me'yorda bo'lsa} \\ 1, & \text{agar } a \text{ darajasi nisbiy bo'lsa}(a \approx 59,06 \pm 2,53) \\ 2, & \text{agar } a \text{ darajasi o'rta ko'tarilgan bo'lsa}(a \approx 61,38 \pm 1,18) \\ 3, & \text{agar } a \text{ darajasi yuqori bo'lsa}(a \approx 63,27 \pm 8,06) \end{cases}$$

, bunda a ning qiymati laboratoriyada aniqlanadi.

S_{ren} - quyidagi qiymatlarni olishi mumkin bo'lgan rentgenologik bosqich funktsiyasi:

$$S_{ren}(r)=\begin{cases} 0, & \text{agar } r \text{ darajasi me'yorda bo'lsa} \\ 1, & \text{agar } r \text{ 1 bosqichda bo'lsa} \\ 2, & \text{agar } r \text{ 2 yoki 3 bosqichda bo'lsa} \\ 3, & \text{agar } r \text{ 4 bosqichda bo'lsa} \end{cases}, \text{ bunda } r \text{ ning qiymati}$$

laboratoriyada aniqlanadi.

S_{jnchh} - spirometriyani o'rganish funktsiyasi, JNCHH1 / JO'TS havo oqimining cheklanishini baholash, bu quyidagi qiymatlarni olishi mumkin:

$$S_{jnchh}(o)=\begin{cases} 0, & \text{agar } o \geq 70 \\ 1, & \text{agar } 50 \leq o \leq 69 \\ 2, & \text{agar } 30 \leq o \leq 49 \\ 3, & \text{agar } o < 30 \end{cases}, \text{ bunda } o \text{ ning qiymati laboratoriyada}$$

aniqlanadi.

Axborotli belgilarni baholash amalga oshiriladi, shundan so'ng funksiyalarning olingan qiymatlari umumlashtiriladi va biz quyidagi matematik modelini olamiz S_{rez} :

$$S_{rez} = S_{sim}(x_i) + S_{ley}(k) + S_{ney}(n) + S_{nel}(m) + S_{1b}(b) + S_{17A}(a) + S_{ren}(r) + S_{jnchh}(o)$$

Olingan S_{rez} qiymatini quyidagicha izohlash orqali, nospetsifik interstitsial pnevmoniyani erta tashxislash uchun foydalanish mumkin:

$$D(S_{rez}) = \begin{cases} \text{engil kechishi, agar } 0 \leq S_{rez} \leq 6 \\ \text{o'rta og'ir, agar } 7 \leq S_{rez} \leq 14 \\ \text{og'ir kechishi, agar } S_{rez} \geq 15 \end{cases}$$

Ushbu model, nospetsifik interstitsial pnevmoniya bilan og'rigan bemorlarga tashxis qo'yish mezonlarini yaxshilash uchun pulmonologiyada qo'llanilishi mumkin bo'lgan dasturiy ta'minotni (DGU No 09459) yaratish uchun ishlatilgan.

Tekshiruvlar bajarilganidan so'ng, yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlarning qiymatlari ishlab chiqilgan formulalarga joylashtiriladi. Keyin hisoblanib, natijada miqdorning qiymatiga ko'ra bemor mos guruhga kiritilishi kerak.

NOSPETSIFIK INTERSTITSIAL PNEVMONIYANING ERTA DIAGNOSTIKASI DASTURI

Subyektiv

☐ yo'tal ☐ charchoq, umumiy holsizlik

☐ samarasiz balg'am ☐ subfebril harorat

☐ ko'krak qafasidagi siqilish ☐ tana vaznini pasayishi

☐ hansirash ☐ isitma

☐ uyqu ☐ ozish

Ob'ektiv

☐ barmoqlar "baraban tayoqchalar", timoqlar «soat shisha»li ☐ krepatitsiyalovchi xirillashlar

☐ bronxial nafasning kuchayishi ☐ o'ng qorinchali etishmovchilik belgilari

☐ sustlashgan vezikulyar nafas ☐ nam mayda va o'rta pufakchali xirillashlar

Qonda leykotsitlar mavjudligi bo'yicha

☒ Me'yorda ☐ Muta'dil ☐ O'rtacha ☐ Yuqori

Qonda neytrofillar mavjudligi bo'yicha

☒ Me'yorda ☐ Muta'dil ☐ O'rtacha ☐ Yuqori

Qonda neytrofil elastaza mavjudligi bo'yicha

☒ Me'yorda ☐ Muta'dil ☐ O'rtacha ☐ Yuqori

Qonda 1β va 17A interleykinlar mavjudligi bo'yicha

☒ Me'yorda ☐ Muta'dil ☐ O'rtacha ☐ Yuqori

O'pkani rentgenologik tekshiruvi

☒ Me'yorda ☐ I ☐ II-III ☐ IV

mMRC (Modified Medical Research Council) so'rovnomasi

☒ Me'yorda ☐ I ☐ II-III ☐ IV

Spirometriya tekshiruvi, havo oqimining cheklanishini baholash MChHH1 /O'HSF

☒ Juda og'ir ta'sir ☐ Og'ir ☐ Yo'q

☐ Og'ir ta'sir ☐ O'rta

☐ O'rtacha ta'sir ☐ Engil

Matematik model statistik ahamiyatga egadir ($p < 0,001$) va bemorni shifoxonaga yotqizishda tavsiya qilingan sakkizta ko'rsatkichlar asosida model tuzilgan bo'lib, bashorat imkoniyati yuqoridir (78,3%). Jumladan, og'ir kechishili

bemorlar guruhidagi 69,2%, o'rta og'ir kechishli guruhda 83,1% ni, yengil kechishli da esa 94% tashkil etdi. Yuqorida keltirilganlar biz yaratgan tasnif matritsasiga asoslanadi.

Demak, tibbiy muassasaga yotqizilgan NIP li bemorda o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, kechish og'irligini erta tashxislash matematik modeli yuqori bashorat qilish imkoniyati (88,3%) va statistik ahamiyatga egadir ($p < 0,001$). Modelni o'ziga xosligi 94,0%, sezgirligi 79,2%, noto'g'ri manfiy javoblar ulushi 20,8% va noto'g'ri musbiy 6,0% ni tashkil qiladi. Modelning sifati, uni ortirilgan zotiljamni kechish og'irligini erta tashxislash uchun tavsiya etiladi.

Klinik misollarda matematik modelni tekshirish.

Sog'liqni saqlash vazirligi Samarqand shahar tibbiyot markazining pulmonologiya bo'limi negizida, 52 nafar "Nospetsifik interstitsial pnevmoniya" tashxisli bemorda matematik modelni sinab ko'rdik, tekshiruv tanlovi bo'yicha amalga oshirildi. Kasallikning engil kechishi bilan 22 kishi va og'ir kechadigan 20 kishi kiritildi. Tadqiqot metodikasiga yaratilgan formulalarga, bemorni tekshirish paytida olingan ko'rsatkichlarini kiritidik. Bu kasallikning birinchi kunida shifoxonadan tashqari kelib chiqqan pnevmoniyani kechish og'irligini taxmin qilish imkonini berdi.

Tahlil natijalariga ko'ra, kechishi og'ir bo'lmagan NIPlı bemorlarda yakuniy klinik tashxis 91% to'g'ri kelishi (22 tadan 20 tasida), og'ir kechishli guruhda esa 80% ni tashkil qildi (20 tadan 16 tasida).

Demak, bemorning tibbiy muassasaga tushgandan so'ng, matematik modelini amalda sinab ko'rish natijalari, uni amaliyotda qo'llash lozimligini isbotladi.

Tadqiqot natijalarining namoyoni sifatida biz yaratilgan matematik model asosida, sinov kuzatuvlarimizni taqdim etamiz.

3-misol. Bemor I., 59 yoshda, kasallik tarixi № 16432/546, O'zR SSV Samarqand shahar tibbiyot markazi pulmonologiya bo'limiga yotqizilgan. Shikoyatlari – kam miqdorli balg'am bilan yo'tal, umumiy holsizlik, burun

tiqilishi, oqishi. Anamnezidan: sovuq qotishdan keyin kasallangan. Bir necha yil davomida chekadi, kuniga 1 pachka. Tana harorati $39,1^{\circ}\text{C}$; auskultatsiyada ikkala o'pka pastki bo'limlarida krepitatsiyalovchi xirillashlar eshitiladi; perkussiyada o'pka tovushining tumtokligi ikkala o'pka pastki qismlarida aniqlanadi. Nafas tezligi 1 daqiqada 22 marta; qon bosimi 120/ 80 mm sim. ust. teng, yurak urishi 1 daqiqada 90 zarba, SpO_2 - 94%. Ko'krak qafasi a'zolarining rentgenogrammasida - o'ngda S9 va chapda S8, S9 larda infiltratsiya o'choglari mavjud. Dastlabki tashxis: Nospetsifik interstitsial ikki tomonlama pastki bo'lakli pnevmoniyasi.

Qonning umumiy tahlili: leykotsitlar - $13,6 \times 10^9 / \text{l}$, eozinofillar - 2%, bazofillar - 4%, tayokcha-yadroli neytrofillar - 9%, segmentoyadrolilar - 54%, limfotsitlar - 12%, monositlar - 19%, gemoglobin - 120 g /l, eritrotsitlar - $4,19 \times 10^{12} / \text{l}$, gematokrit - 37,8. Qonning biokimyoviy tahlili: umumiy oqsil - 66 g/l, albuminlar - 35 g/l, bilirubin - 24,6 mkmol/l, kreatinin - 78 mkmol/l, fibrinogen - 6,0 g/l, PTI - 73 %, C-reaktiv oqsil - 151 mg/l. Qon zardobidagi neytrofil elastaza darajasi 113,21 pg/ml.

Kasallikning keyingi kechishini aniqlash maqsadida, kasallikning borishini bashorat qilish uchun matematik modeldan foydalandik. Ko'rsatkichlarning qiymatlarini formulalarga joylashtiramiz:

Immunitetning hujayrali aloqalarini o'rganishda quyidagi ko'rsatkichlar olingan: IL-1 β - 47,34 pg / ml, IL-17A - 64,25 pg / ml.

$$S_{\text{rez}} = S_{\text{sim}}(1) + S_{\text{ley}}(2) + S_{\text{ney}}(1) + S_{\text{nel}}(3) + S_{\text{1b}}(3) + S_{\text{17A}}(3) + S_{\text{ren}}(2) + S_{\text{jnchh}}(2) = 16$$

Yakuniy klinik tashxis: Nospetsifik interstitsial ikki tomonlama pastki bo'lakli (S9da o'ngdan va S8da, S9da chapdan) pnevmoniya, og'ir kechishi. Asoratlar: NOE I dar.

Davolanishni 14-kuni bemorga ko'krak qafasi a'zolarining nazorat rentgenografiyasi bajarilib, o'choqli va infiltrativ soyalar aniqlanmagan, hamda qoniqarli ahvolda uyiga javob berilgan.

4-misol. Bemor K., 35 yoshda, kasallik tarixi №14275/423, Samarqand shahar tibbiyot markazi pulmonologiya bo'limiga yotqizilgan. Shikoyatlari – kam miqdorli sariq balg'am bilan yo'tal, isitma $38,2^{\circ}\text{C}$, umumiy holsizlik.

Anamnezidan: bir hafta oldin kasal bo'lib qolgan. Boshida burni oqqan,, keyin tana harorati ko'tarilib, yo'tal paydo bo'lgan. Ko'rikda: tana harorati 37,9 ° C; auskultatsiyada o'ngdan pastki bo'limlarda nam mayda pufakchali xirillashlar eshitiladi; perkussiyada o'pka tovushining tumtokligi o'ngdan pastki bo'limlarda aniqlanadi. Nafas olishi i daqiqada 19 marta; qon bosimi 110/70 mm sim. ust. teng., yurak urishi 1 daqiqada 77 zarba, SpO2 - 97%. Ko'krak qafasi a'zolarining rentgenogrammasida - o'ngdan S9 va S10 da infiltratsiya o'chog'i aniqlandi. Dastlabki tashxis: Nospetsifik interstitsial o'ng tomonlama pastki bo'lakli pnevmoniyasi.

Umumiy qon tahlili: leykotsitlar - $9,1 \times 10^9 / l$, eozinofillar - 1%, bazofillar - 2%, tayoqchasimon-yadroli neytrofillar - 4%, segmentoyadrolilar - 58%, limfotsitlar - 20%, monotsitlar - 14%, gemoglobin – 127 g/ l, eritrotsitlar - $4,41 \times 10^{12}/l$, gematokrit - 39,5. Qon biokimyoviy tahlili: umumiy oqsil - 73 g/l, albuminlar - 44 g/l, bilirubin - 9,5 mkmol/l, kreatinin - 74,7 mkmol/l, fibrinogen - 4,1 g/l, PTI - 87 %, C-reaktiv oqsil - 45 mg/l. Qon zardobida neytrofil elastaza darajasi 111,21 pg/ml ni tashkil qildi.

Immunitetning hujayra aloqalarini o'rganishda quyidagi ko'rsatkichlar olingan: IL-1 β - 47,47 pg / ml, IL-17A - 61,43 pg / ml.

Kasallikning keyingi kechishini aniqlash va bashorat qilish uchun biz matematik modeldan foydalandik. Ko'rsatkichlarning qiymatlarini formulalarga joylashtirdik:

$$S_{rez} = S_{sim}(1) + S_{ley}(2) + S_{ney}(1) + S_{nel}(2) + S_{1b}(2) + S_{17A}(2) + S_{ren}(2) + S_{jnchh}(2) = 13$$

Formulaga ko'ra 13 natijani olamiz va shunga ko'ra, nospetsifik interstitsial pnevmoniyaning o'rtacha og'irlikdagi kechishini taxmin qilish mumkin.

Yakuniy klinik tashxis: Nospetsifik interstitsial o'ng tomonlama pastki bo'lakli pnevmoniyasi, o'rta og'irlikdagi kechishi.

Davolanishni 14-kuni bemorga ko'krak qafasi a'zolarining nazorat rentgenografiyasi qilinib, unda o'choqli va infiltrativ soyalar aniqlanmangan, hamda qoniqarli ahvolda uyiga javob berildi.

XOTIMA

Ilk bor engil, oʻrta ogʻir va ogʻir shaklli kechadigan nospetsifik interstitsial pnevmoniyaga chalingan bemorlarni tekshirish natijalari oʻrganildi. Bu kabi kasalliklar amaliyotda asosan pulmonologlar, umumiy amaliyot shifokorlari, va boshqalarda uchraydi (Listopadova M.V., 2015; Popova E.N. va b., 2014). Lekin bizning mintaqada kam oʻrganilganicha qolmoqda (Aralov N.R. va b., 2019).

NIP da asosiy shiqoyat avjlanib, uzoq vaqt davom etuvchi - bu hansirashdir [54]. Maʼlumki, davolashni samarali va bemorlar hayot sifatini yaxshilashda, oʻz vaqtida nurli tashxislash usullaridan (YuAKT) foydalanish, NIP ni tasdiqlashda yordam berdi (Babanov S.A., 2013; Rubtsov Yu.E., 2015).

Tadqiqot maqsadi immunologik biomarkerlardan foydalangan holda, nospetsifik interstitsial pnevmoniya tashxisini takomillashtirish.

Biz nospetsifik interstitsial pnevmoniya bilan ogʻrigan 16 nafar engil kechishdagi (hujayra tipi), 59 nafar oʻrtacha ogʻirlikdagi (aralash tipi) va 65 nafar ogʻir kechishi (fibrozli tip) bilan ogʻrigan bemorlarni tekshirdik.

Tekshiruv natijalariga koʻra, NIP erkaklarda sezilarli darajada koʻp tarqalganligi aniqlandi ($p=0,01$). Interstitsial oʻpka toʻqimalarining eng keng tarqalgan patologiyasi NIPOK boʻlib, ularda oʻz vaqtida tashxis qoʻyishning etarli darajada tarqalishi bilan bogʻliq boʻlishi mumkin, bu keyinchalik ayrim hollarda, tadqiqotchilarning fikriga koʻra, bronxiolalar tirkishining obliteratsiyasiga olib keladi (Kurajov A.P. va b., 2012).

Bemorlarning yarmidan koʻp qismi qishloq joylarida va 12,5 % shaharda istiqomat qilishi qayd etildi. Oʻzbekiston Respublikasida aholi oʻrtasida NIPning tarqalishi haqida maʼlumotlar yoʻq. Mamlakatda epidemiologik tadqiqotlar oʻtkazilmagan (Ubaydullaev S.A. va b., 2018).

NIP li bemorlarning oʻrtacha yoshi 53 yoshni tashkil etdi (32 yoshdan 73 yoshgacha). Tekshiruv vaqtida kasallikning davomiyligi bir oydan 15,22 kungacha, kasalxonada qolish muddati 7,47 kunni tashkil etdi.

Bizning maʼlumotlarimizga koʻra, bemorlarda NIP namoyon boʻlish davri oʻrtacha 6 oy (2 oydan 7 oygacha). Bemorlarda NIPEK va NIPOʻKning namoyon

bo'lishi ko'pincha 50 yoshdan oldin sodir bo'ladi, NIPOK esa qariyalarda (60-70 yosh) rivojlanadi ($p < 0,05$).

Ushbu ma'lumotlar qisman Ch.S. Kuo va boshq. ma'lumotlariga mos keladi, unga ko'ra bemorlarda NIP asosan 40 yoshdan keyin rivojlanadi. Mualliflar o'z tadqiqotlarida NIPO'K turli yoshdagi bemorlarda kuzatishgan, og'ir shakllari ko'pincha yoshi keksalarda (Ponomareva E.Yu. va b., 2014; Ubaydullaev A.M. va b., 2011).

Kasalxonaga tushguncha, ayrim bemorlarda pnevmoniya (16,42%, $n=23$) va takroriy bronxit (9,28%, $n=13$) kuzatilgan.

NIP bilan kasallangan 101 (72,14%) bemor kasallikning qo'zg'alishi bosqichida edi. 14 (87,5%) bemorga NIPEK tashxisi va 54 (91,53%) bemorga NIPO'K tashxisi birinchi marta qo'yilgan.

NIP li bemorlar guruhida anamnezi o'rganishda bemorlarning 25,71 % da ($n=36$) pulmonologik va allergik kasalliklar og'irlashtiruvchi irsiyatga ega bo'lishgan.

Passiv chekish 47,86% ($n=67$) hollarda asosan erkaklarda kuzatilgan.

NIPni boshlanishida, bemorlar ko'proq samarasiz yo'tal (90,0%, $n=126$) yoki hansirashga (75,71%, $n=106$), ayrim payri isitmaga shikoyat qilishgan.

NIPEK ning klinik manzarasini klassik tavsifi Chuchalin A.G. asarlarida yoritilgan. Kasallik o'tkir tarzda, yo'tal, hansirash, isitma yoki holsizlik bilan boshlanadi. Bayramova R.S. (2016), bu patologiyada yo'tal belgisida ishora qiladi. Asherova I.K.. (2015) va boshq., yo'tal samarasizligini va asosiy belgisi avj oluvchi hansirash ekanligini ta'kidlaydi. NIPO'Kning namoyon bo'lishi, ko'proq yo'tal va hansirash paydo bo'lishi bilan tavsiflanadi, hamda aralash xarakterga ega (restriktsiya bilan obstruktsiya).

Gabitovaga N.H. (2019) qo'ra, NIPOK ning birinchi alomati – bu obstruktsiyasiz tez o'sib borayotgan hansirashdir. Lev N.S. (2017) NIPOKning namoyon bo'lishi, isitma bilan tavsiflanmasligini ta'kidlaydi. Mizernitskiy Yu.L. bolalarda NIPOK klinik ko'rinishini tasvirlab berdilar - hansirash, samarasiz yo'tal, barmoqlarning tirnoq falangalarida "baraban tayoqchalari" va tirnoqlari

"soat ko'zoynasi" kabi o'zgarishlar, ko'pchilik bolalarning ko'krak qafasi yassilashgani edi.

Bizning tadqiqotimizda NIPOK li bemorlarga samarasiz yo'tal va hansirash xosdir. Ikki bemorda tana vazni pasayishi va barmoqlarning qo'yi falangalari o'zgarishi aniqlandi, bu patologiyaning prognostik jihatidan noqulay omilidir [40]. Ya'ni, kasallikni og'ir kechishi faqat nurli tekshiruv usullardagi o'zgarishlar bilan ifodalangan bo'lishi mumkin.

NIPEK va NIPOK li bemorlarni 10 (7,14%) holatida, ko'krak qafasining bochkasimon buzilishi yoki yassilanishi kuzatilgan. NIP guruhdagi 64 ta (45,71%) bemorda, NIPEK li 6ta, NIPOK li 26ta va NIPOK bilan 32ta bemorda, surunkali nafas etishmovchiligi belgilari (barmoq, tirnoqlar qo'yi falangalarini o'zgarishi) aniqlangan.

Frolova T.I. (2013) tadqiqotlarida, NIPEK li 87 % bemorlarga nafas olishi susayishi, quruq va diffuz mayda pufakchali nam yoki krepatatsiyalovchi xirillashlar kuzatilgan. Chichkova N.V.ning va boshq. (2012) fiqriga ko'ra, NIPEK li bemorlarda cho'zilgan nafas chiqarish, o'pkada tarqoq quruq xirillashlar aniqlanadi.

Ovcharenko S.V. va boshq. (2019), NIP og'irlashishi bilan bemorlarda asosan orqa bazal krepatatsiyalovchi, bir nechta nam va quruq xirillashlarni tasvirlashgan.

Bizning tadqiqot natijalariga ko'ra, bu patologiyaga xos - perkussiyada qutili va timpanik tovush, auskultatsiyada – bronxial nafas kuchayishi va qattiq nafas, mayda pufakchali yoki krepatatsiyalovchi xirillashlardir. NIPEK (87,5%, n=14) li bemorlarda krepatatsiyalovchi xirillashlar sezilarli darajada tez-tez uchraydi va NIPOK, NIPOK ($p<0,05$) bilan kasallanganlarga nisbatan ko'proqdir. Faqat NIPEK li bemorlarda (31,25%, n=5) bronxial obstruksiya belgilari (quruq xirillashlar) qayd etildi, bu boshqa mualliflar ma'lumotlariga (Dolgushin I.I., 2011) mos keladi.

Umuman olganda, adabiyotlarni tahliliga ko'ra, NIPga xos bo'lgan laborator tekshiruv usullarida turli xil o'ziga xos o'zgarishlar mavjud. Chuchalin A.G. va

boshq., interstitsial pnevmoniyaga laborator tekshiruvlarni samarasiz ekanligini ta'kidlashmoqda. Bemorlarning 90% dan ko'proqda EChT ko'tarilgan. NIPO'Kning avj olish paytida, umumiy qon tahlilida o'rtacha neytrofilli leykotsitoz kuzatilishi mumkin. Listopadova M.V. (2015) og'ir shaklli bemorlarda qonda eozinofiliyani aniqlagan.

Laborator tekshiruv natijalariga qo'ra, NIP li bemorlarda umumiy qon tahlilidagi o'zgarishlar, biokimyoviy qon tekshiruvi ko'rsatkichlari kabi spetsifik emasdir.

Rossiya pulmonologlari ma'lumotlariga (2014) ko'ra, NIPO'K li bemorlarda immunologik testlarda SIK va Ig G miqdorining ortishi kuzatilgan. NIPOK li bemorlarning faqat 30% immunoglobulinlarning oshishini aniqlanadi.

Ayrim tadqiqotchilar ma'lumotlariga ko'ra, o'ziga xos Ig G ni aniqlash diagnostik qiymatli hisoblanadi, lekin ular antigen bilan aloqada bo'lgan sog'lom odamlarda ham aniqlanishi mumkin (Mustafakulova N.I. va b., 2016; Popova E.N. va b., 2014). Ilkovich M.M. va boshqalar (2019), NIP tashxisi faqat mos antitanalar asosida tasdiqlanmasligini ta'kidlashmoqda (Ilkovich M.M. va b., 2019).

Olimlar fiqriga qo'ra, o'ziga xos IgG va teri sinamalarini aniqlashga muqobil ravishda, allergenlar bilan qonning xemilyuminestsentsiya usuli qo'llanilishini taklif qilishmoqda (Semenov A.V. va b., 2012).

Yallig'lanishga xos sitokinlarning ko'p miqdori, tizimli yallig'lanish reaksiyasi rivojlanishiga olib keladi. Yallig'lanishga xos sitokinlar - IL-1 β , IL-17A xemokinlari ishtirokida, antigenlarning to'qimalar zararlanishi va kirib borishiga javoban, tipik yallig'lanish reaksiyasini shakllanishi orqali, to'qimalarda mahalliy himoya reaksiyalarini tartibga keltiriladi.

Natijada IL-1 β , IL-17A fibroblastlarni faollashtiradi, kollagen ishlab chiqarish ko'payadi va to'qimalar zararlanadi, mahalliy fibrozni keltirib chiqaradi va jarayonning surunkali bo'lishiga yordam beradi (Xu F. et al., 2021).

NIP li bemorlarda yallig'lanishga xos sitokinlarning IL-1 β parametrlarini ishlab chiqarishda immunokomponent hujayralar ko'payishi kuzatiladi. Xususan,

NIP li bemorlarda periferik qonda IL-1 β sitokinining miqdori nazorat guruhiga va GK va YuIK li bemorlar guruhiga nisbatan sezilarli darajada ko'payishi kuzatiladi.

NIP li bemorlarda yallig'lanishga xos sitokinning IL-17A parametrlarini ishlab chiqarishning immunokomponent hujayralarining ko'payishi aniqlandi. Xususan, NIP li bemorlar periferik qonida IL-17A sitokinining nazorat guruhi va GK hamda YuIK bemorlar guruhiga nisbatan sezilarli o'sishi kuzatiladi. Tarasova I.V. shunga o'xshash ma'lumotlarni qayd etgan (2011).

Neytrofil elastazaning eng yuqori darajasi og'ir va o'rtacha kechichli NIP li guruhlarda, engil kechishli guruhda kamroq, tekshirilgan shaxslarning nazorat guruhlarida (sog'lom, GK va YuIK bo'lgan bemorlar) ham kamroq kuzatildi. Shu bilan birga, NIPO'K va NIPOK li bemorlarda tahlil qilingan belgi bo'yicha ishonchli farqlar yo'q edi.

Shu bilan birga, NIPEK li guruhidagi ferment darajasi ham amaldagi sog'lom insonlar guruhidagi miqdoridan ancha farq qiladi. Ehtimol, engil NIP bilan guruhdagi fermentning nisbatan muta'dil darajasi mahalliy darajada (bronxlarda) neytrofil elastaza ta'siriga bog'liqdir. Ingalyatsion va tizimli steroidlarning ferment parametrlariga ta'sirini inobatga olish lozim.

Grabowski P. Va boshq. (2019), ferment ko'plab eruvchan oqsillarni, xususan, surfaktantli protein-A, immunoglobulinlar, koagulyatsiya omillari, komplement komponentlari va ko'plab proteaz ingibitorlarini parchalaydi, deb hisoblaydi.

Bir qator tadqiqotchilar ma'lumotlariga ko'ra, ayrim patologiyalar - artrit, miokard ishemiyasi, pankreatit, emfizema, nefrit, sepsis, arterial gipertenziya, bronxoektaziya, surunkali obstruktiv o'pka kasalligi, 2 toifali qandli diabetida, neytrofil elastaza miqdorining ko'payishi va to'qimalarga jiddiy zarar etkazilishi qayd etilgan (Chichkova N.V. va b., 2012).

Small D.M., va boshq., (2015) neytrofil elastaza bilvosita matriksli metalloproteinazalar orqali kollagen va jelatinni yo'q qilishga ta'sir qilishini ta'kidlashdi. Proteinazali ingibitorlar (α 1-antitripsin, α 2-makroglobulin va boshq.)

miqdorining pasayishi, elastazaning faollashishiga olib kelib, yallig'lanish reaktsiyasining kuchaytiradi.

Demak, neytrofil elastazaning faolligi va uning ingibitorlari o'rtasidagi nomutanosiblik, ferment ishlab chiqarishi, aylanib yuruvchi ingibitorlari darajasi va faolligi bilan bog'liqdir. Bu nafas olish yo'llari kasalliklari, xususan, nospetsifik interstitsial pnevmoniya rivojlanishida neytrofil elastaza rolining muhimligini ko'rsatadi.

NIP li bemorlarda allergenlarga sezgirlik, anamnez ma'lumotlari va nurli diagnostika natijalari tashxisini tasdiqlash imkonini beradi (Osipov L.V. va b., 2016).

Bu kabi bemorlarda tashqi nafas olish funktsiyasini spirografiya usuli bilan o'rganish, majburiy hisoblanadi. NIPEK li bemorlarga TNOF buzilishini aralash turi (obstruksiya ustunligi), NIPO'K li bemorlarga esa restriktiv yoki aralash turi xosdir (Bakumov P.A. va b., 2014; Gabitova N.X. va b., 2019). Ayrim tadqiqotchilar kasallikni faqat og'ir shaklida restriktiv buzilish, hamda aksariyat bemorlarda esa obstruktiv komponentini aniqlashgan (Soloveva Yu.V., 2013).

NIP da havo yo'llarining qaytarilmas obstruksiyasi, o'rta og'ir kechishida aralash buzilishlari, o'pkaning diffuziyon qobiliyatining pasayishi va og'ir kechishida restriktiv buzilishlar diagnostik mezonlar sifatida inobatga olingan (Suprun E.N., 2015; Kuo Ch. S. et al., 2014).

Spirometriya natijalariga qo'ra, JO'TS ko'rsatkichlari 10 (20,83%) bemorda pasayishi aniqlandi. JO'TS va JNChH-1 ning 75% dan kamayishi, Tiffno indeksini 70% dan ortishi, NIPOK li 1 bemorda va NIPOK li 3 bemorda (8,33%) kuzatilgan, bu esa TNOF ni restriktiv buzilishiga xosdir. NIPO'K li 3 ta va NIPEK li 4 bemorda (14,58%) o'zgarishlar restriktiv ustunligi bilan aralash kechgan. NIPEK li 2 ta bemorda (4,17%) obstruksiya ustunlik qilgan. Lekin, GK va YuIK 7 ta (7,45%) bemorda, restriksiya ustunligi ham aniqlangan.

EKG va ExoKG, NIP asorati sifatida o'pkali yurak shakllanishi diagnostikaning asosiy usullaridan hisoblanadi. Baranov A.A.ga ko'ra (2015), NIP li har 6-chi bemorda o'ng yurakning haddan tashqari yuklanish belgilari

aniqlangan. O'pka arteriyasidagi bosimning oshishi, surunkali o'pkali yurak va o'ng qorincha etishmovchiligi NIPOK li bemorlarga xosdir. Hamda, NIPOK li bemorlarning yarmida EKGda o'pka gipertenziyasi, belgilarisiz o'ng yurakning ortiqcha yuklanishi kuzatilgan.

Bizning ma'lumotlarimizga ko'ra, NIP li bemorlarda o'pka gipertenziyasi aniqlanmadi, bu tananing yuqori kompensatsion qobiliyatiga bog'liqdir. Lekin 2 ta (4,17%) bemorda, o'ng qorinchaning biroz kengayishi aniqlangan.

O'pka kasalliklarini aniqlash usullaridan biri rentgenologik tekshiruvdir. NIP ni etakchi belgilar sifatida, engil kechishda o'pka tasvirining mozaik manzarasi, "havo qopchasi" belgilari, o'rta kechishda to'liq infiltrativ o'zgarishlar, «hirali oyna» belgisi, fibroz aniqlangan (Kozlov V.K., 2018). Og'ir kechishda esa – to'liq o'pka fibrozi, "ari uyali o'pka" belgisi va a'zolar maydonlarini kichrayishidir.

Surunkali bronxiolitga chalinganlar bir necha yil o'tgach rentgenogrammasida - asosan kichik havo yo'llarini zararlanishi, o'pka manzarasi shaffofligi aniqlangan (Boytsova E.V. va b., 2014). Giperinflratsiyaning rentgenologik belgilari asosan o'pkaning pastki va o'rta sohalarida kuzatilgan. NIPEK li bemorlarni yarmida rentgenogrammada fibrosklerotik o'zgarishlar aniqlangan, hamda plevral yopishqoqlik juda keng tarqalgan (Zolotnitskaya V.P. va b., 2019; Petrova D.V. va b., 2014).

O'tkir NIP li ko'plab bemorlar rentgenogrammasida o'zgarishlar kuzatilmagan (Lev N.S., 2014).

O'tkir NIP li bemorlarda rentgenologik - bronxovaskulyar manzaraning kuchayishi, nozik, o'choqli soyalar bilan kuzatilgan. NIPning surunkali shaklida, yuqorilardan tashqari, obstruktiv ko'rinishlar, ayrimlarida esa - kalsifikatsiya, to'liq pnevmoskleroz belgilari aniqlangan (Zavershinskiy A.V., 2015; Lepshina S.M. va b., 2017).

NIPOKning asosiy belgisi - bu ikki tomonlama tarqalgan pastki sohalarda retikulyar yoki retikulomodulyar xarakterli o'zgarishlardir (Avdeev S.N., 2015; Glagolev N.A. va b., 2016). Boshlanishida, o'pka maydonlari hajmini kamayishi

va "hiralı oyna" kabi pasayishini aniqlash mumkin (Averyanov A.V., 2016). Morfologik jihatdan NIP li bemorlarni 16% da, rentgenologik manzara o'zgarmaganligi ta'qidlangan (Chernyaev A.L. va b., 2017).

Tadqiqot natijalariga qo'ra, o'pka manzarasining hujayrali kuchayishi, shaffofligini keng tarqalishi, havoligini pasayishi va pnevmofibrozo o'choqlari bilan almashishi kabi belgilar kuzatildi. Asosiy guruhdagi 45 bemorda (32,14%) keng tarqalgan havolik joylari aniqlangan.

Stromal komponent tufayli o'pka manzarasining kuchayishi – NIPOK ko'pchilik bemorlarda, NIPOK li barchasida va NIPEK li 14 ta bemorda kuzatilgan. Pnevmo-fibrozo/pnevmo-skleroz o'choqlari barcha NIP holatlarining 52,14% (n=73) aniqlangan, NIPOKda esa ular faqat keksa yoshli bemorlarda (n=11) topilgan (Karibov A.V. va b., 2017).

Amaliyotda ko'krak qafasi a'zolarining yuqori aniqlikdagi kompyuter tomografiyasini joriy etilishi, o'pkadagi patologik o'zgarishlarning tabiati, hajmi va avj olishini baholash imkonini yaratdi (Osipov L.V. va b., 2016; Truxan D.I., 2007). Interstitsial o'pka kasalliklarni YuAKT yordamida aniqlash, ilmiy adabiyotlarda etarli darajada yoritilmagan, va asosan yuzaki ma'lumotlar keltirilgan.

Manbalarga qo'ra idyopatik interstitsial pnevmonitda umumiy belgi - bu o'pkalarni pastki bo'laklarida manzarani kuchayishidir. NIP da bu fonda past zichlikdagi infiltrativ o'zgarishlar (plevra osti, suyak-diafragma burchaklari) aniqlanadi. Hamda bu bir tomonlama yuqqa devorli bronxoektazlar rivojlanishi, bo'lak markazi emfizema va shaffofligini kamayishidir (Tyurin I.E., 2014). Panchenkova L.A. va boshq., NIPEKda "hiralı oyna" belgisining muta'dil tarqalishini (30-45%), "buyrakdagi daraxt" tasviriga xos, bronxial daraxtning deformatsiyasini ko'rsatadi.

NIP li bolalarda peribronxial skleroz va periferik bronxlar tirkishini torayishini tasvirlagan (Boytsova E.V. va b., 2014).

NIPOK da o'pka parenximasidagi dastlabki o'zgarishlar - kichik o'choqli soyalar, ba'zida o'pka to'qimalari shaffofligini pasayishi "hiralı oyna" belgisidir.

Patologiyani surunkali kechishida - o'pka manzarasining diffuz kuchayishi va buzilishi, "ari uyali o'pkasi" manzarasi. Dastlab belgilar kamroq ifodalangan, so'ng to'lik fibroz belgilari rivojlanadi ("hiral oyna"), to'r-tolali tasvir, hujayrali yorug'lik, o'pka maydonlarining kichrayishi va diafragmani yuqori joylashishidir (Kostina N.E. va b., 2019).

Ponomarev A.B. va boshq. (2017), Zavershinskiy A.V. (2015) o'ziga xos belgilarni keltirgan: tartibsiz chiziqli soyalar, "hiral oyna" kabi o'pka maydonlarining shaffofligini pasayishi va kistozli nurlanishlar.

Ayrim tadqiqotchilar natijalariga qo'ra "ari uyasi" belgilari 90% da aniqlanadi, umumiy rentgenografiyada bu ko'rsatkich 15-30% ga ega. Eng katta o'zgarishlar o'pkaning bazal va subplevral bo'limlarida aniqlanadi. Lenshin A.V. va boshq. (2019) ma'lumotlariga ko'ra, NIPOK da "hiral oyna" belgilari mozaik-fibrotik qalinlashgan alveolyar devorlari va alveola ichi granulyatsiyon to'qimalar rivojlanishi bilan kechadi. Tadqiqotimiz natijalariga qo'ra, kompyuter tomografiyada NIP ga o'pka to'qimalarining zararlanishini mezenhimal turi xosdir (72,14%). NIPO'K va NIPOK da esa "hiral oyna" manzarasi ko'proq uchraydi, NIPEK da esa o'pkaning asosan markaziy sohalarida o'zgarishlar aniqlanadi.

NIPEK li bemorlarga asosan peribronxial zichlanishlar, bo'lak markazi emfizema, peribronxial skleroz va periferik bronxlar tirkishi torayishi xosdir, bu to'liq Lenshin A.V. va boshq. (2019) ma'lumotlariga mos keladi. Ayrim NIPEK li bemorlarda ko'krak qafasini KT paytida bronxiolalarni Y- shaklidagi tuzilmalari aniqlangan (37,5%, n=6). NIPO'K li bemorlarda bo'laklararo mezenxima ko'proq kuchayadi, bu umuman olganda, Panchenkova L.A..ning ma'lumotlariga mos keladi (2018). NIPO'Kda panlobulyar emfizema ham keng tarqalganligi kuzatilgan.

Subsegmentar atelektazlar NIPEK (n=2), NIPO'K (n=10) va NIPOK (n=12) li bemorlarning 17,14% (n=24) da uchraydi. KQA ning YuAKTdagi fibrosklerotik o'zgarishlar NIPOK li bemorlarda ko'proq aniqlanadi. Faqat NIPO'K va NIPOK li ba'zi bemorlarda «ari uyali» o'pka tasviri shakllangan.

Demak, tadqiqot jarayonida olingan natijalarni tahlil qilinib, bemorlarda NIPni ogirlik kechishi bo'yicha erta diagnostika qilish matematik midellashtirishni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish uchun taklif qilish imkonini berdi, hamda bir qator xulosalarni shakllantirishga.

Buning uchun, bu natijalar anamnez, klinik manzara, laborator natijalari va KT natijalariga alohida e'tibor berish kerakligini ko'rsatadi. Xususan, NIP anamnezida artralgiik sindrom aniqlangan, kasallikning 40-50 yoshda boshlanishi; IO'F da - 50 yoshdan keyin kasallikning boshlanishi, uzoq vaqt chekish; EAA da - potentsial allergen bilan ekspozitsiya; TSD da - Reyno sindromi; LP da - bleomitsin, amiodaron, siklofosfamid, metotreksat, immunobiologik preparatlarni qabul qilish.

NIP klinikasida - ko'pincha chekmaydigan ayollar; IO'F da - ko'pincha erkaklar, qo'llarida "barabanli tayoqchalar"; EAA da - hansirash kuchayishi, allergen bilan aloqa qilgandan keyin isitma; TSD da - sklerodaktiliya, quruq yupqalashgan teri; LP da - respirator belgilarining ko'rinishi odatda preparatni qabul qilish vaqtiga to'g'ri keladi. NIPdagi KT belgilari – «hirali oyna», muta'dil retikulyar o'zgarishlar, saqlanib qolgan parenximaning simmetrik plevra osti zonalari, asosan bazal joylashgan; IOF da - "ari uyali o'pka" subplevral va bazal joylashishi ustunligi bilan, ifodalangan retikulyar o'zgarishlar; EAA da - «hirali oyna», shaffofligi pasaygan bo'lakli joylar; bo'laklararo tugunlar, zararlanmagan plevra osti chiziqlar (subpleural sparing), yuqori bo'laklarga utish bilan bir xil taqsimlanishi; surunkali kechishda – plevra osti "ari uyalari"; bo'laklararo va bo'laklarichi devorlarning qalinlashishi; TSD da - bir xil NIP, qizilo'ngachning kengayishi, o'pka arteriyasining kengayishi; LPda ular NIP bilan bir xil, ko'pincha - OBOPning namoyon bo'lishi sifatida zichlanish zonalari, yuqori bo'lakli joylashishi bo'lishi mumkin (Vizel A.A. va b., 2017; Shamsutdinova N.G. va b., 2019).

Ta'kidlash lozimki, tizimli biriktiruvchi to'qimalar kasalliklari, dori-darmonlar keltirib chiqaradigan o'pka zararlanishlari va ekzogen allergik alveolitlar NIPning rentgenologik patterniga ega bo'lishi mumkin. Tizimli

sklerodermiyada Reyno sindromining paydo bo'lishi xarakterlidir, bu ko'pincha parenximal zararlardan ko'p yillar oldin bo'ladi. Shunga ko'ra, KT tasviri yuqorida tavsiflanishi mumkin bo'lgan, rentgenologik ko'rinishlar to'plamini o'z ichiga oladi. KT da muhim qo'shimcha belgi - bu tush orti periezofageal to'qimalarining sklerozi tufayli qizilo'ngachning kengayishidir. Ushbu belgi o'pka parenximasining zararlanishidan oldin aniqlanishi mumkin. TSD ning yana bir rentgenologik belgisi o'pka arteriyasining kengayishi bo'lib, og'ir o'pka gipertenziyasini aks ettiradi, bu TSD ning taxminan 20% da uchraydi (Litvinenko E.A., 2017).

EAA ning surunkali va o'tkir osti shakllarini rentgenologik jihatdan NIPdan ajratish juda qiyin. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra (Distefano G. et al., 2020; Ichikado Kazuya, 2014; Yagihashi Kunihiro va b., 2016), bemorlarda KT ma'lumotlarining qiyosiy tahliliga asoslanib, EAA da havo tutqichlari bilan shaffoflik bo'lakchali maydonlarining paydo bo'lishi, qon tomirsiz, markazlashtirilgan o'choqlarsiz va zararlanishni pastki bo'lakli joylashuvi ustunligining yo'qligi, ko'proq xosdir. Shu bilan birga, EAA ning etiologik omillarini to'liq tahlil qilish bizga to'g'ri tashxis qo'yishga imkon beradi, ammo aniq EAA holatlarida ham bemorlar har doim ham allergenni qo'zg'atuvchini aniqlay olmaydilar. IIP dan EAA ning differentsial tashxisini osonlashtiradigan muhim diagnostik testi bronxoalveolyar lavaj suyuqligining sitologik tahlilidir. Hujayra cho'kindisida T-limfotsitlarning 50% dan ko'prog'ining paydo bo'lishi (ma'lum holatlarda), EAA tashxisi foydasiga dalolat beradi.

LPda bleomitsin, siklofosfamid, metotreksat va amiodaronlar, NIP tipidagi pnevmopatiyalarni chaqiraydigan eng ko'p dorilardir. O'pkada interstitsial jarayonning rivojlanishi bilan preparatni qabul qilishning taxminiy xronologik aloqasi, odatda tashxisni to'g'ri talqin qilishga yordam beradi. Amaliyotda, davolanishni tugatgandan keyin bir necha yil davomida dori kasalligining kechikishi holatlari tasvirlashgan. Masalan, miya usmasiga qarshi sitostatik karmustin bilan davolangan bemorlarda, NIPning namoyon bo'lishi kimyoterapiyaning oxirgi kursidan o'nlab yillar o'tgach kuzatilgan. Dori-

darmonlar keltirib chiqaradigan NIP uchun mustaqil kasallik sifatida, NIPdan aniq farqlari yo'q, yuqori bo'laklarda jarayonning joylashishi mumkin bo'lganligi bundan mustasno, bu har doim ham shunday emas (Averyanov A.V. va b., 2016; Ovcharenko S.I. va b., 2019).

Katta qiyosiy tadqiqotlar o'tqazilmasdan oldin, NIPning noto'g'ri diagnostikasi juda keng tarqalganligi aniqlandi. Shunday qilib, tadqiqotchilar IIP bilan og'rigan bemorlarda rentgenologik va morfologik tashxis o'rtasidagi muvofiqlikni baholashdi (Lee P.J. et al., 2012; Søyseth V. et al., 2015).

Ma'lum bo'lishicha, ikkita mustaqil rentgenolog bemorning 71 % IO'F tashxisini to'g'ri qo'ygan, uyushgan pnevmoniya bilan obliteratsiyalovchi bronxiolit tashxisi - 79% hollarda, desquamatli interstitsial pnevmoniya - bemorlarning 63 %, NIPni to'g'ri talqin qilish faqat bemorlarning 9% aniqlangan. Keyinchalik, bir nechta tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, IO'F va NIP o'rtasidagi YuAKTdagi asosiy farqlar IO'F da hujayrali degeneratsiyasining ifodalanganligi va «hiral oyna» xosligidir (NIP belgisi). IO'Fda uchramaydigan NIPga xos bo'lgan yana bir alomat - bu saqlanib qolgan o'pka to'qimalarining simmetrik yupqa plevra osti chiziqlaridir (subpleural sparing), hamda retikulyar va yallig'lanish o'zgarishlarining mavjudligi.

OIV infeksiya (Mirtsxulava N.G., 2014) va aspiratsion pnevmoniya (Petrova D.V. va b., 2013) bilan bog'liq, NIP o'rtasidagi farqni aniqlash uchun tadqiqotlar ham o'tkazildi.

Eng qiyin vazifa NIPni deskvamat interstitsial pnevmoniyadan (DIP) ajratishdir (Averyanov A.V. va b., 2016), asosan faol chekuvchilarda (ko'pincha erkaklarda) paydo bo'lishi bilan tavsiflanadi, NIP esa ayrim hollarda chekmaydigan ayollarda ham rivojlanadi. DIP uchun, NIPga qaraganda ko'proq darajada, qondagi yallig'lanish o'zgarishlari yorqin ifodalanganligi, ya'ni EChT 50 mm / soat dan oshadi va CRO, laktatdehidrogenaza miqdorining ko'payishidir. BAL suyuqligida umumiy sitozning kuchayishi fonida, jigarrang makrofaglar va muta'dil eozinofiliya va neytrufiliya odatda topiladi, o'rtacha limfotsitoz yoki neytrufiliyoz esa NIPga xosdir. Ko'krak qafasining KT da, NIPda bo'lgani kabi,

o'pkaning periferik va bazal qismlarida joylashgan ikki tomonlama «hiral oyna» zonalari aniqlanadi. Biroq, DIPda sezilarli o'zgarishlar o'pkani yuqori bo'laklarida joylashishi mumkin, bu NIP uchun xos emasdir. Umuman olganda, DIPdagi «hiral oyna» uchun mozaikli tasvir xosdir, bunda zararlangan zonalar oddiy parenxima bilan almashadi, EAA'dagi havo yostiqlarini eslatadi. Retikulyar o'zgarishlar odatda kam ifodalangan, ammo qalinlashgan bronxlar deyarli har doim uzoq vaqt chekish natijasida topiladi. DIP tizimli steroidlar bilan davolashga juda tez javob beradi va ko'pincha iz qoldirmasdan o'tadi.

Shu sababli, tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, nospetsifik interstitsial pnevmoniyaning klinik kechishi idiopatik o'pka fibrozi, ekzogen allergik alveolit, tizimli sklerodermiya va dori-darmonli pnevmoniyaga o'xshashdir. Nospetsifik interstitsial pnevmoniya va boshqa o'pka kasalliklarining differentsial tashxislashini o'tkazishda anamnez, klinik manzara, laborator ma'lumotlari va KT belgilariga alohida e'tibor berish lozim.

XULOSALAR

1. Nospetsifik interstitsial pnevmoniyaning barcha shakllariga xos bo'lgan asosiy belgilar - quruq yo'tal, asosan isitmasiz progressiv hansirash; kompyuter tomogrammada o'pka to'qimalari infiltratsiyasining interstitsial turi, zichlanish o'choqlari, ikkala o'pkada o'choqli va keng tarqalgan fibrozli-sklerotik o'zgarishlar asosan o'pkaning markaziy, bazal va orqa-bazal qismlarida tarqalganligi, ko'plab «ari uyali» o'pka tasvirini va emfizematoz-bullyoz havoli shish joylari ko'rinishining boshlanish belgilari NIP engil kechishlarida erta tashxislash imkonini beradi.

2. Nospetsifik interstitsial pnevmoniya avjlanishida proteoliz fermenti neytrofil elastazaning NIP engil kechishida 2,2 marta va og'ir kechishida 2,4 martaga ko'tarilishi aniqlash asosida davolashning optimal rejasini tuzish va kasallik prognozini yaxshilashda ahamiyatlidir.

3. Yallig'lanish tizimining biomarkerlari konsentratsiyasini solishtirilganda, NIP engil va og'ir kechishida mos ravishda: periferik qondagi sitokinlar IL-1 β 3,3 va 3,1, IL-17A 4,7 va 4,1 marotaba, neytrofil elastazaning 2,2 va 2,4 barovar ortishi nospetsifik interstitsial pnevmoniya rivojlanishini erta tashxislash mezonlari xisoblanadi.

4. NIP kechishining og'irligini erta baholash uchun matematik modeli NIP og'ir, o'rta va engil kechishi bo'lgan bemorlarda mos ravishda: 69,2%, 83,1% va 94% hollarda prognoz qilingan natijaning haqiqiy natija bilan mos kelishini ta'minlashi, bemorlarni davolashda individual, differensial yondashuvlar rejasini ishlab chiqishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Абдуллаев А.Ю. Компоненты системы «протеиназы-антипротеиназы» в индуцированной мокроте больных хронической обструктивной болезнью легких// Пульмонология – 2012. - №5. – С.33-36.
2. Авдеев С.Н. Идиопатический легочный фиброз: современные подходы к терапии // Практ. пульмонология. - 2015. - №1. - С.22-31.
3. Авдеев С.Н., Белобородов В.Б., Белоцерковский Б.З., Грицан А.И., Дехнич А.В., Зайцев А.А., Киров М.Ю., Козлов Р.С., Кузьков В.В., Проценко Д.Н., Рачина С.А., Синопальников А.И., Яковлев С.В., Ярошецкий А.И. Тяжелая внебольничная пневмония у взрослых. Клинические рекомендации Федерации анестезиологов и реаниматологов России// Анестезиология и реаниматология. – 2022. - №1. – С. 6-35.
4. Аверьянов А.В., Лесняк В.Н., Коган Е.А. Редкие заболевания легких: диагностика и лечение.// Изд-во МИА, Москва. – 2016. – 245 с.
5. Аверьянов А.В. От идиопатического фиброзирующего альвеолита к идиопатическому легочному фиброзу (ч. I). //Клиническая практика. -2016. -№27(3). – С.73-76.
6. Акулкина Л.А., Бровко М.Ю., Шоломова В.И., Янакаева А.Ш., Моисеев С.В. Интерстициальная пневмония с аутоиммунными признаками: мультидисциплинарный диагноз в пульмонологии и ревматологии // Клиническая фармакология и терапия. – 2018. –Т. 27., – № 5. – С. 5-11.
7. Амосов В.И., Сперанская А.А. Лучевая диагностика интерстициальных заболеваний легких. // Изд-во ЭЛБИ-СПб, СПб. - 2015. - 176 с.
8. Амосова Н. А., Сперанская А. А., Золотницкая В. П., Нестерович И. И., Ночевная К. В. Сопоставление нарушений кровообращения в легких, выявляемых при рентгеновской и однофотонной эмиссионной компьютерной томографии, с суставными изменениями при магнитной резонансной томографии у больных ревматоидным артритом // Регионарное кровообращение и микроциркуляция. – 2016. – Том 15 №2(58). – С. 11-16.

9. Андрюков Б.Г., Богданова В.Д., Ляпун И.Н. Фенотипическая гетерогенность нейтрофилов: новые антимикробные характеристики и диагностические технологии. //Гематология и трансфузиология. – 2019. - №64(2). – С.211-221.)
10. Аралов Н.Р., Агабабян И.Р., Исмаилов Ж.А., Холлиев Р.Х. Диагностическая значимость IL-8 и IL-12 при различных формах интерстициальной болезни легких //Доктор ахборотномаси. -2018. - № 1. - С.14-16.
11. Аралов Н.Р., Носирова Д.Э., Рустамова Ш.Ш., Окбоев Т.А., Дусанов А.Д., Юлдашева Д.А. Роль полиморфного локуса гена ЭНОС3 и взаимосвязь противо-, провоспалительных цитокинов при семейной бронхиальной астме // Достижения науки и образования. Иваново. – 2019. – № 9 (50). – С. 34-39.
12. Аралов Н.Р., Рахимов М.М., Носирова Д.Э., Рустамова Ш.Ш. Клиническая и бронхоскопическая характеристика воспалительного процесса у больных с хронической обструктивной болезнью легких //Вопросы науки и образования. – Октябрь, 2019. – № 25 (74). Москва. – С. 55-63.
13. Ашерова И.К., Попов С.Д., Мягкова М.А., Ильина Н.А., Тараканова В.В., Выборнов А.В., Власова А.В. Тяжелый облитерирующий бронхобронхиолит, ассоциированный с синдромом Стивенса–Джонсона// Пульмонология. – 2015. - №25 (4). - С.497–500.
14. Бабанов С.А. Проблемы дифференциальной диагностики саркоидоза // Новости медицины и фармации. - 2013. - №454. - С. 7-11)
15. Байрамова Р.С. Определение активности нейтрофильной эластазы при обострении хронической обструктивной болезни легких кандидо бактериальной этиологии//Биомедицина. – 2016. - №4. – С.84-87.
16. Бакумов П.А., Ковальская Е.Н., Зернюкова Е.А., Кочетова Е.И., Алексеев Е.Г. Профессиональная бронхиальная астма// Лекарственный вестник. – 2014. - №1 (53) Том 8. – С.18-30.

17. Беяшова М.А. Интерстициальные заболевания легких у детей первых двух лет жизни: Автореф...канд.мед.наук. – Москва, 2017. – 24 с.
18. Биркун А.А., Кубышкин А.В., Фомочкина И.И. Сурфактант-антибактериальная терапия острой экспериментальной пневмонии: морфологическая оценка и анализ состояния процессов протеолиза //Вісник морфології. – 2014. – Т. 20., – № 2. – С. 268-273.
19. Богатова Е.И., Вагапова А.Ф., Галкина М.В., Селезнева Н.М. Неспецифическая интерстициальная пневмония в реальной клинической практике. //В сборнике: Инфекционно-воспалительные заболевания как междисциплинарная проблема Материалы II межрегиональной научно-практической конференции. – 2018. – С. 18-23.
20. Бойцова Е.В., Овсянников Д.Ю. Постинфекционный облитерирующий бронхиолит у детей//Детские инфекции. – 2014. - №2. – С.24-28.
21. Визель А.А. , Визель И.Ю. , Амиров Н.Б. Идиопатический легочный фиброз: состояние проблемы.// Вестник современной клинической медицины. - 2017. - №10(1). – С.14-21.
22. Владимирова Е.Б., Шмелев Е.И., Степанян И.Э., Зайцева А.С., Дегтярева С.А., Дмитриева Л.И., Евгущенко Г.В., Лепеха Л.Н. Интерстициальные изменения в легких: поиск причин (клиническое наблюдение). //Пульмонология. – 2018. – Т. 28., № 4. – С. 490-495.
23. Встраиваемые информационно-измерительные системы для медицинских приборов : учебно-методическое пособие / М.В. Бабич, А.В. Чистяков, В.А. Сирица ; М-во науки и высшего образования РФ.— Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та, 2022.— 80 с.
24. Габитова Н.Х., Черезова И.Н., Черезова К.А. Идиопатический фиброзирующий альвеолит у новорожденного ребенка. Российский вестник перинатологии и педиатрии. – 2019. - №64(5). – С.226-229.

25. Глаголев Н.А., Сахно Ю.Ф., Блинов В.С.. Компьютерная томография в диагностике заболеваний легких и плевры (обзор) //Вестник РУДН, Серия Медицина. – 2016. - №1. – С.39-53.

26. Дей А.А., Гельцер Б.И., Антонюк М.В., Гвозденко Т.А., Калинина Е.П., Титоренко И.Н. Оценка взаимосвязи силы дыхательных мышц и показателей цитокинового статуса у больных внебольничной пневмонией. //Пульмонология. – 2021. - №31(3). – С.311-319.

27. Дифференциальная диагностика и лечение очаговых и диссеминированных заболеваний легких. Учебно-методическое пособие /сост. Л.А. Панченкова, Е.Ю. Майчук, А.И. Мартынов, Х.А. Хамидова, Т.Е. Юркова, И.В. Воеводина, И.А. Макарова; под ред. Л.А. Панченковой; МГМСУ.- М.:РИО МГ МСУ, 2018.- 42 с.

28. Долгушин И.И. Физиологические особенности нейтрофильных гранулоцитов, характеристика нейтрофильных гранулоцитов и методы оценки их функционального статуса. Германия – Изд-во: Ламберт, 2011. - 248 с.

29. Долгушин И.И., Мезенцева Е.А., Савочкина А.Ю., Кузнецова Е.К. Нейтрофил как «многофункциональное устройство» иммунной системы //Инфекция и иммунитет. – 2019. - Т. 9, №1, С. 9-38.

30. Дудла Л.Б., Рязанова Е.А., Пелех Я.А. Клинический случай диагностики идиопатической интерстициальной пневмонии (криптогенная организирующая пневмония) // Медицина транспорта Украины. – 2011. – № 2 (38). – С. 096-099.

31. Завершинский А.В. Лучевая диагностика идиопатического фиброзирующего альвеолита // Bulletin of Medical Internet Conferences (ISSN 2224-6150). - 2015. - Volume 5. Issue 12. – С.1638.

32. Загаштокова А.Х. Влияние глюкокортикостероидов и контрикала на активность протеолиза и его ингибиторов при бронхолегочной дисплазии у недоношенных детей : Автореф...канд.мед.наук. – Москва, 2011. – 25 с.

33. Золотницкая В.П., Сперанская А.А., Яковлева Н.С. Особенности лучевой картины внебольничной пневмонии при интерстициальных заболеваниях легких // Лучевая диагностика и терапия. - 2019. - № 2 (10). - С. 72-79.

34. Ибадов Р.А., Арифжанов А.Ш., Юлдашев У.К., Стрижков Н.А., Шаниева З.А., Абдуллаева С.Д., Ибрагимов С.Х. Особенности респираторной тактики при двусторонней интерстициальной пневмонии на фоне хронического отторжения. //Нефрология и диализ. – 2016. – Т. 18., № 4. – С. 459-463.

35. Иванов В.В., Харитонов М.А., Железняк И.С., Серговенцев А.А., Журкин М.А., Садыков Р.Р., Николаев А.В., Бондаренко А.И. Новые подходы к применению спиральной компьютерной томографии у военнослужащих с внебольничной пневмонией тяжелого течения// Вестник Российской военно-медицинской академии. – 2015. - №3(51). – С.114-118.

36. Илькович М.М., Новикова Л.Н. Идиопатические интерстициальные пневмонии: объединительная концепция //Доктор.Ру. – 2018. – № 4 (148). – С. 14-17.

37. Интерстициальные и орфанные заболевания легких / под ред. М.М. Ильковича, Баранова О.П., Богданов А.Н.. – Москва: ГЭОТАР-Медиа, 2019. -560 с.

38. Кабанова А.А. Эластазная активность ротовой жидкости пациентов с гнойно-воспалительными процессами челюстно-лицевой области //Известия высших учебных заведений. Поволжский район. Медицинские науки. – 2014. – Т.30, №2. – С. 68-75.

39. Казачков Е.Л. К вопросу о новой классификации идиопатических интерстициальных пневмоний. //В сборнике: Актуальные вопросы патологоанатомической практики. Материалы научно-практической патологоанатомической конференции Южного Урала с участием патологоанатомов других регионов России и СНГ, посвященной 30-летию

основания Челябинского областного патологоанатомического бюро. Под редакцией Казачкова Е.Л. - 2014. - С. 30-33.

40. Казымова Д.В. Интерстициальные болезни легких у детей: клинико-лучевая характеристика: Автореф...канд.мед.наук. – Уфа, 2015. – 24 с.

41. Кардангушева А.М., Сабанчиева Х.А. Идиопатический легочный фиброз: возможности мультидисциплинарной дискуссии в диагностическом поиске. //Пульмонология. – 2018. – Т. 28., № 5. – С. 622-625.

42. Каретникова В.М., Петрунько И.Л. Клинический случай идиопатической интерстициальной пневмонии: экспертные подходы.// Acta Biomedica Scientifica. – 2019. – Т. 4., № 2. – С. 29-32.

43. Карибов А.В., Трошин А.В., Евдокимова Ж.А. Особенности диагностики интерстициальных пневмоний в условиях флюорографического скрининг. //Лучевая диагностика и терапия. – 2017. – № 2 (8). – С. 86.

44. Ковальчук, Л.В. Иммунология. Практикум: моногр. / Л.В. Ковальчук, Г.А. Игнатьева, Л.В. Ганковская. – М.: ГЭОТАР-Медиа, 2012. – 176 с.

45. Козлов В.К., Лебедько О.А., Пичугина С.В., Сиротина-Карпова М.С., Евсеева Г.П., Гандуров С.Г. Актуальные вопросы хронических неспецифических заболеваний легких у детей. //Бюллетень физиологии и патологии дыхания. – 2018. - №(70). – С.15-25.

46. Колосов В.П., Кочегарова Е.Ю., Нарышкина С.В. Внебольничная пневмония (клиническое течение, прогнозирование исходов). - Благовещенск, 2012. - 124 с.

47. Косарев, В.В. Справочник врача пульмонолога [Текст] / В.В. Косарев, С.А. Бабанов. – М. : Феникс, 2011. – 448 с.

48. Костина Н.Э., Малявин А.Г., Хвостикова А.Е., Пустохина О.Е. Опыт диагностики синдрома Германского-Пудлака при рентгенологическом паттерне обычной интерстициальной пневмонии. //Терапия. – 2019. – Т. 5., № 5 (31). – С. 112-115.

